Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari Basitxanova E.E, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi

boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtirilgan Kengash yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma (sana, №raqam).

QISQARTMALAR RO‘YXATI:

YUQT	– Yurak-qon tomir tizimi
FEGDS	– fibroezofagogastroduodenoskopiya
EGS	– ezofagogastroskopiya
EKG	– elektrokardiografiya
TNM	– Tumor Nodus Metastasis – xavfli o‘sma kasalliklari bosqichlarining xalqaro tasnifi
JSST	– Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti
ECOG	– (ingl. Eastern Cooperative Oncology Group) – 5 balli tizim bo‘yicha davolanishdan oldin, davolanish paytida va undan keyin onkologik bemorning umumiy holatini baholash shkalasi (onkologik kasalliklarni o‘rganish uchun Sharqiy Qo‘shma guruh tomonidan tavsiya etilgan).
RW	– Vasserman reaksiyasi
ALT	– Alaninaminotransferaza
AST	– Aspartataminotransferaza
OIV	– Odam immuntanqisligi virusi
Gr	– Grey
HO‘	– Xavfli o‘sma
IGX	– Immunogistoximik (tekshirish)
KSF	– Koloniyestimullovchi faktorlar (omillar)
LD	– Limfodisseksiya
NT	– Nur terapiya
UYA	– Umumiy yashovchanlik
QBA	– Qorin bo‘shlig‘i a‘zolari
KQA	– Ko‘krak qafasi a‘zolari
KCHA	– Kichik chanoq a‘zolari
PZR	– Polimeraz zanjir reaksiyasi

PET	– Pozitron-emission tomografiya
BMO‘D	– Bir martalik o‘choqli doza
PR	– Progesteron retseptorlari
ER	– Estrogen retseptorlari
QLT	– Qo‘riqchi limfa tuguni (tugunlari)
SO‘D	– Summar o‘choqli doza
UTDG	– Ultratovush dopplerografiya
v/i	– Vena ichiga
i/p	– Intraperitoneal
AFP	– Alfa-fetoprotein
IGX	– immunogistoximiya
KT	– kompyuter tomografiya
LDG	– laktatdigidroginaza
DV	– Dori vositasi
MNN	– Xalqaro patentlanmagan nomi
MRT	– magnit-rezonans tomografiya
PXT	– poliximioterapiya
NAPXT	– neoad‘yuvant poliximioterapiya
BBS	– Bachadon bo‘yni saratoni
UTT	– Ultratovush tekshiruvi
DD	– Dalillar darajasi
GOG	– Ginekolog onkologlar guruhi (ginekologik saratonni o‘rganish kooperirlangan guruhi, AQSH)
FIGO	– Xalqaro ginekologlar va akusherlar Federatsiyasi
CIN	– Servikal intraepitelial neoplaziya
IIAI	– Papanikolau bo‘yicha surtma
VAIN	– Qin intraepitelial neoplaziyasi

- Mazkur nozologiya bo‘yicha milliy protokolning foydalanuvchilari:

- Shifokor-onkologlar;
- Onkoginekologlar;
- Shifokor- kattalar jarrohlari;
- Umumiy amaliyot shifokorlari;

- Sogʻliqni saqlash tashkilotchilari;
- Shifokor-terapevtlar;
- OTM talabalari, magistrilar, ordinator va aspirantlar.
- **Mazkur nozologiya boʻyicha bemorlarning toifasi: (18 yoshdan) kattalar.**
- **Dalillarga asoslangan tibbiyotning, dalillari darajasi Chkalasi:**

Dalillarning ishonchlilik darajalarini (DID) baholash oʻlchovi diagnostika usullari (diagnostik aralashuvlar) uchun

DID	Batavsil
1	Malumot nazorati ostida oʻtkaziladigan tadqiqotlarning tizimli tekshiruvi yoki randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarning metatahlil yordamidagi tizimli tekshiruvi
2	Maʼlumotlarning usuli yoki alohida tasodifiy klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi alohida tadqiqotlar muntazam ravishda koʻrib chiqish, metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlar bundan mustasno
3	Maʼlumotnoma usuli bilan ketma-ket nazoratsiz tadqiqotlar yoki oʻrganilayotgan usuldan mustaqil boʻlmagan tadqiqotlar yoki tasodifiy boʻlmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogort tadqiqotlar
4	Taqqoslab boʻlmaydigan tadqiqotlar, klinik holatning tavsifi.
5	Faqat harakat mexanizmi yoki ekspertlarning fikrini asoslash mavjud.

Profilaktika, davolash va reabilitatsiya (profilaktika, davolanish, reabilitatsiya aralashuvlari) uchun dalillarga ishonch darajasini baholash oʻlchovi

DID	Batavsil
1	Metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlarni muntazam koʻrib chiqish.
2	Alohida tasodifiy klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarning tizimli sharhlari, metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlar bundan mustasno.
3	Tasodifiy boʻlmagan qiyosiy tadqiqotlar,
4	Taqqoslab boʻlmaydigan tadqiqotlar, klinik hodisa yoki
5	qator hodisalar tavsifi, «hodisa-kontrol» tadqiqotlari.

Профилактика, таъхис, даволаш ва реабилитация усуллари бўйича таъсияларнинг ишонтириш даражасини баҳолаш ўлчови (профилактика, даволаниш, реабилитация аралашувлари)

DID	Batavsil
-----	----------

A	Kuchli tavsiya (ko‘rib chiqilgan barcha samaradorlik mezonlar (natijalar) muhim ahamiyatga ega, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega, ularning qiziqish natijalari bo‘yicha xulosalari kelishilgan).
B	Shartli tavsiya (ko‘rib chiqilgan barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim emas, hamma tadqiqotlar ham yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega emas va / yoki qiziqish natijalari bo‘yicha ularning xulosalari kelishilmagan).
C	Zaif tavsiya (tegishli sifat dalillarining yo‘qligi, ko‘rib chiqilgan barcha samaradorlik mezonlari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar past uslubiy sifatga ega va qiziqish natijalari bo‘yicha ularning xulosalari kelishilmagan).

2. Asosiy qism.

- Kirish

Bachadon bo‘yni saratoni (BBS) - dunyodagi ayollarda eng keng tarqalgan xavfli o‘smalardan biridir.

- **Nozologiyaning umumiy tavsifi** (foydalanilgan manbaga havola: <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/cervical-cancer>)

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, bachadon bo‘yni saratoni dunyo bo‘ylab ayollarda to‘rtinchi eng keng tarqalgan saraton turi hisoblanadi; 2020 yilda 604 000 yangi holatlar kuzatilgan. Bachadon bo‘yni saratonidan 342 000 o‘limning taxminan 90 foizi kam yoki o‘rta daromadli mamlakatlarda sodir bo‘lgan. Bachadon bo‘yni saratonidan kasallanish va o‘limning eng yuqori ko‘rsatkichlari Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika davlatlarida, Markaziy Amerika va Janubi-Sharqiy Osiyoda kuzatiladi. Bachadon bo‘yni saratoni yukidagi regionar farqlar emlash, skrining va davolash xizmatlaridan foydalanishdagi tengsizliklar, OIV tarqalishining xavf omillari, shuningdek, jins, gender tarafkashligi va qashshoqlik kabi ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq. OIV bilan kasallangan ayollar bachadon bo‘yni saratoniga chalinish ehtimoli umumiy aholiga qaraganda olti baravar ko‘p va bachadon bo‘yni saratonining barcha holatlarining 5% OIV bilan bog‘liqligi taxmin qilinmoqda. Bachadon bo‘yni saratoni rivojlanishida OIVning roli yosh ayollar orasida nomutanosis ravishda yuqori va natijada bolalarning onasini saraton kasalligidan mahrum qilish holatlarining 20 foizida bachadon bo‘yni saratoni sabab bo‘ladi.

Sabablari

Odam papilloma virusi (OPV) teri, jinsiy a‘zolar va tomoqni zararlashi mumkin bo‘lgan keng tarqalgan jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyadir. Jinsiy faol bo‘lgan insonlarning deyarli barchasiga bir vaqtning o‘zida yuqadi va odatda alomatlarisiz bo‘ladi. Ko‘pgina hollarda immunitet tizimi OPVdan tanani tozalaydi. OPVning persistirlanuvchi

infeksiyasi saratonga aylanadigan anomal hujayralar rivojlanishini rag'batlantirishi mumkin.

Bachadon bo'ynining persistirlanuvchi OPV infeksiyasi (bachadonning qinga ochiladigan pastki qismi - tug'ilish kanali deb ham ataladi) davolanmasa, 95% holatlarda bachadon bo'yni saratonini keltirib chiqaradi. Anomal hujayralar saratonga aylanishi uchun odatda 15-20 yil kerak bo'ladi, ammo immunitet tizimining buzilishi bilan, masalan, davolanmagan OIV infeksiyasi bo'lgan ayollarda bu jarayon tezroq o'tishi va 5-10 yil davom etishi mumkin. Saraton rivojlanishining xavf omillari orasida OPV tipidagi onkogenlik darajasi, immunitet holati, boshqa jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalarning mavjudligi, tug'ilishlar soni, birinchi homiladorlik davrida ayolning yosh bo'lganligi, gormonal kontratseptiv vositalardan foydalanish va chekish kiradi.

Bachadon bo'yni saratonining aksariyat holatlarining sababi OPV onkogen subtiplarining persistensiyasi (davom etishi) dir. Onkogen OPV ning 16 va 18 subtiplari bachadon bo'yni saratonini bilan og'rigan bemorlarning 71% da uchraydi, OPVning 31, 33, 45, 52 va 58 subtiplari esa bemorlarning 19% da aniqlanadi. Bachadon bo'yni saratonidan o'limni kamaytirish strategiyasiga ikkilamchi profilaktika (Surtmalarni Papanikolau bo'yicha sitologik tekshiruv va/yoki OPVga DNK tekshiruv) va birlamchi profilaktika (OPVga qarshi emlash) kiradi.

Invaziv bachadon bo'yni saratonini bilan bemorlarning 70-80% ini, yassi hujayrali saraton, 10-20% ini adenokarsinoma va 10%ini — past differensiallashgan saraton tashkil etadi. Bachadon bo'yni xavfli o'smalarining boshqa gistologik turlari 1% dan oshmaydi.

O'zbekiston Respublikasidagi holat

RIOvaRIATMning 2022 yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida umumiy saraton kasalligi tarkibida BBS 3-o'rinni egallaydi va BBS bilan kasallanish 100 ming aholiga nisbatan 5,1 ni tashkil etadi. Mamlakatning ayol aholisi orasida BBS ko'krak bezi saratonidan keyin 2-o'rinni egallaydi va 100 000 ayol aholiga nisbatan 10,3 ni tashkil qiladi. 2022 yilda BBS bilan birinchi marta 1851 bemor aniqlandi. Ulardan 46,6% holatlar profilaktik tekshiruvlar paytida faol ravishda aniqlangan. BBSning morfologik tasdiqlanish ulushi bemorlarda 99,0% ni tashkil qiladi. 17,6% holatlar kasallikning I bosqichida, 53,4% - II bosqichda, 23,1% - III bosqichda va 4,6% - IV bosqichda aniqlangan. bemorlarning 1,3% da kasallikning bosqichini aniqlab bo'lmadi. 2023 yil boshida 9918 bemor BBS bilan tibbiy nazorat ostida bo'lgan va kasalmandlik 100 ming aholiga nisbatan 55,4 ni tashkil qilgan. Respublikada 5 yillik yashovchanlik darajasi 42,4% va 1 yillik o'lim darajasi 9,2% ni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda 331 bemor bachadon bo'yni saratonidan vafot etdi, bu 100 ming aholiga nisbatan 2,7 o'limni tashkil etadi va ko'krak bezi, me'da va o'pka saratonidan keyin 4-o'rinni egallaydi. Ayol aholining o'limi orasida BBS ko'krak

bezi saratonidan keyin 2-o‘rinni egallaydi va ayol aholi orasida saratondan o‘limning 12,7% ini tashkil qiladi.

- BBSning klinik tasnifi [7]

BBS tashxisi faqat gistologik tekshiruv natijalari asosida belgilanadi.

Bachadon bo‘yni saratoni bosqichini aniqlash uchun har qanday vizualizatsiya usullari va/yoki morfologik tekshiruv ma‘lumotlaridan foydalanish mumkin. Bachadon bo‘yni saratonining bosqichi usulni tanlash va davolash rejasini tuzish uchun zarur bo‘lgan maxsus terapiya boshlanishidan oldin belgilanadi. Bachadon bo‘yni saratoni bosqichi maxsus davolash boshlanganidan keyin o‘zgarmaydi. Bosqichni aniq belgilashda qiyinchiliklar mavjud bo‘lgan hollarda, avvalgirog‘ini tanlash kerak bo‘ladi. Jarrohlik davosi olayotgan bemorlarda morfologik topilmalarni alohida qayd etish kerak. Buning uchun TNM nomenklaturasi mos keladi (TNMdan oldingi harf qisqartmasi qaysi ma‘lumotlar asosida birlamchi o‘sma (T), limfa tugunlari (N) va uzoq metastazlar (M) holati aniqlanganligini ko‘rsatishi kerak: klinik ma‘lumotlar (cTNM), nur tekshiruvi usullari ma‘lumotlari (rTNM), operatsiyadan keyingi morfologik ekspertiza ma‘lumotlar (pTNM).

Bosqichini aniqlash FIGO (2018 y.) va TNM (8-nashr, 2021 y.da yangilangan) tasnifi asosida belgilanadi (1-jadval).

1-jadval. BBSni bosqichlar bo‘yicha tasniflanishi (FIGO (2018 y.) va TNM (8-nashr, 2021 yilda yangilangan) bo‘yicha tasnifi).

TNM	FIGO	
TX	Birlamchi o‘smanni baholash uchun yetarli ma‘lumotlar yo‘q	
T0	Birlamchi o‘sma aniqlanmaydi	
Tis	- ¹	in situ saraton, preinvaziv saraton (ushbu holatlar BBS bilan kasallanish statistikasiga kiritilmagan)
T1	I bosqich	O‘sma bachadon bo‘yni bilan chegaralanadi (bachadon tanasiga tarqalishi hisobga olinmaydi)
T1a	IA	Faqat mikroskopik tashxislanuvchi invaziv karsinoma, eng ko‘p invaziya chuqurligi ≤ 5 mm ^{2,3}
T1a1	IA1	Stromal invaziya ≤ 3 mm
T1a2	IA2	Stromal invaziya > 3 mm, lekin ≤ 5 mm
T1b	IB	Invaziv karsinoma, invazii chuqurligi > 5 mm (IA bosqichidan katta), o‘sma bachadon bo‘yni bilan chegaralangan

T1b1	IB1	Invaziv karsinoma, invaziya chuqurligi > 5 mm va o'sma kesimi eng katta o'lchamda ≤ 2 sm		
T1b2	IB2	Invaziv karsinoma, eng katta o'lchami > 2 sm, lekin ≤ 4 sm		
T1b3	IB3	Invaziv karsinoma, eng katta o'lchami > 4 sm		
T2	II bosqich ⁴	Bachadondan tashqariga tarqalgan o'sma, tos devorlariga o'tmagan va qinning pastki uchdan birini zararlamagan		
T2a	IIA	O'sma qinning yuqori uchdan ikki qismini zararlaydi, parametriyni shikastlamasdan		
T2a1	IIA1	Invaziv karsinoma, eng katta o'lchami ≤ 4 sm		
T2a2	IIA2	Invaziv karsinoma eng katta o'lchami > 4 sm		
T2b	IIB	Parametriyni shikastlash bilan, ammo tos devorlariga tarqalmagan		
T3	III bosqich	O'sma tos devoriga tarqaladi va/yoki qinning pastki uchdan bir qismini o'z ichiga oladi va/yoki gidronefroz yoki ishlamaydigan buyrakning sababi va /yoki tos va/yoki paraaorta limfa tugunlarining shikastlanishi kuzatiladi ⁵		
T3a	IIIA	O'sma qinning pastki uchdan bir qismini o'z ichiga oladi, ammo tos devoriga tarqalmaydi		
T3b	IIIB	O'sma tos devoriga tarqaladi va/yoki gidronefroz yoki ishlamaydigan buyrakning sababi hisoblanadi		
	IIIC	Birlamchi o'smaning kattaligi va tarqalishidan qat'i nazar, tos va/yoki paraaorta limfa tugunlarining shikastlanishi (T1–T3) (r va p indekslarining belgilanishi bilan) ⁵		
	IIIC1	Faqat tos limfa tugunlarining zararlanishi		
	IIIC2	Faqat paraaortal limfa tugunlarining zararlanishi		
	IV bosqich	Tos suyagidan tashqariga tarqalgan yoki qovuq yoki to'g'ri ichakning shilliq qavatiga o'sib o'tgan o'sma (bullyoz shish o'smani IV bosqich deb tasniflashga imkon bermaydi)		
T4	IVA	Qovuq yoki to'g'ri ichakka o'sib o'tish ⁶		
M1	IVB	Uzoq metastazlar ⁷		
Regionar limfa tugunlarining holati			Uzoq metastazlar	
NX	Baholash uchun ma'lumotlar yetarli emas		M0	Uzoq metastazlar mavjud emas
N0	Regionar limfa tugunlarining zararlanish belgilari yo'q		M1 7	Uzoq metastazlar mavjud

N1 ⁸	Tos limfa tugunlarida metastazlar
N2 ⁸	Paraaortal limfa tugunlarida metastazlar (tos limfa tugunlarida metastazlar bilan birga yoki ularsiz)

¹ FIGO tasnifida 0 (Tis) bosqich qoʻllanilmaydi.

² Oʻsma oʻlchami va uning tarqalganligi haqidagi klinik maʼlumotlarga qoʻshimcha qilishning barcha bosqichlarida vizualizatsiya usullari va gistologik tekshiruvdan foydalanish mumkin

³ IA bosqichda oʻsmaning gorizontol tarqalishi endi hisobga olinmaydi. Invaziya chuqurligi oʻsma yuzaki epiteliydan yoki bezdan kelib chiqqanligidan qatʼi nazar, bazal membranadan aniqlanadi. Qon yoki limfa tomirlarida oʻsma emboliyasini aniqlash bosqichni oʻzgartirmaydi, ammo gistologik tekshiruv xulosasida aks ettirilishi kerak, chunki bu davolash taktikasiga taʼsir qilishi mumkin

⁴ Parametriy zararlangan III bosqichda parametriyga infiltratsiya tugun shakliga ega boʻlganda va tos devoriga yetib borganida tashxis qilinadi. Boshqa hollarda IIB bosqich deya belgilanadi. Shuni taʼkidlash kerakki, ginekologik tekshiruv paytida infiltratning tabiatini (yalligʻlanish yoki oʻsma) baholash mumkin emas.

⁵ "r" (vizualizatsiya usullari) va "r" (gistologik tekshiruv) indekslarini qoʻshish IIS bosqichi qoʻyilgan usulni aniqlashtirish uchun zarur. Misol uchun, agar tos limfa tugunlarining metastatik shikastlanishi vizualizatsiya usullari bilan aniqlansa, bosqich IIIC1r boʻladi, tos limfa tugunlari shikastlanishi gistologik tasdiqlangan boʻlsa — IIS1p boʻladi. Vizualizatsiya usuli yoki gistologik tekshirish usuli xulosada tavsiflanishi kerak. Agar bosqichni aniq baholash qiyin boʻlsa, avvalroqdagisi qoʻyiladi.

⁶ Qovuq yoki toʻgʻri ichakning shilliq qavatiga invaziya biopsiya natijalari bilan tasdiqlanishi kerak.

⁷ Shu jumladan, chov limfa tugunlari, shuningdek qorin pardaga metastazlar. Kichik chanoq aʼzolarining seroz qavatlari bundan mustasno. Qindagi, kichik chanoq aʼzolari va ortiqlar seroz qavati metastazlari bendan mustasno.

⁸ Limfa tugunlarida metastazlar hajmi > 0,2 mm, lekin 2 mm dan kam boʻlganda "mi" qoʻshimchasi qoʻshiladi; limfa tugunlarida metastazlar hajmi > 2 mm boʻlganda "ma" qoʻshimchasi qoʻshiladi; BSLU da metastaz aniqlansa, "sn" qoʻshimchasi qoʻshiladi.

Bachadon boʻyni saratonidagi regionar limfa tugunlari tashqi, ichki, umumiy yonbosh, paraaortal, yopqich, sakral va bel limfa tugunlari hisoblanadi.

Invaziv bachadon boʻyni saratoni bilan ogʻrigan bemorlarning 70-80% da yassi hujayrali saraton, 10-20% da — adenokarsinoma va 10% da — past differensiallashgan saraton tashxisi qoʻyiladi. Bachadon boʻyni xavfli oʻsmalarining boshqa gistologik turlari

1% dan oshmaydi. Bachadon bo‘yni xavfli o‘smalarining morfologik tasnifi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Bachadon bo‘yni xavfli o‘smalarini morfologik tasnifi (BJSST, 2020 y.).

YASSI EPITELIY O‘SMALARI

- yassi hujayrali intraepitelial zararlanish (yassi epiteliyning zararlanishi (SIL)):
 - yassi epiteliyning yengil zararlanishi (LSIL)
 - yassi epiteliyning og‘ir zararlanishi (HSIL)
- OPV assotsiirlangan yassi hujayrali saraton
- OPV assotsiirlanmagan yassi hujayrali saraton
- Nospetsifik tipdagi yassi hujayrali saraton

BEZLI EPITELIY O‘SMALARI

- Adenokarsinoma in situ
- Adenokarsinoma in situ OPV assotsiirlangan
- Adenokarsinoma in situ OPV assotsiirlanmagan
- Adenokarsinoma nospetsifik tipi
- Adenokarsinoma OPV assotsiirlangan
- Adenokarsinoma OPV assotsiirlanmagan me‘da tipi
- Adenokarsinoma OPV assotsiirlanmagan yorug‘ hujayrali tipi
- Adenokarsinoma OPV assotsiirlanmagan mezonefroid tipi
- Adenokarsinoma OPV assotsiirlanmagan nospetsifik tipi
- Endometrioid adenokarsinoma nospetsifik tipi
- Karsinosarkoma nospetsifik tipi
- Bezli-yassi hujayrali karsinoma
- Mukoepidermoid karsinoma
- Adenoid bazal karsinoma
- Differensiallashmagan karsinoma nospetsifik tipi

ARALASH EPITELIAL VA MEZENXIMAL O‘SMALAR

- Adenosarkoma

GERMINOGEN O‘SMALAR

- Germinogen o‘smalar nospetsifik tipi
 - yetilgan teratoma nospetsifik tipi
 - sariqlik xaltasi o‘smasi nospetsifik tipdagi
 - endodermal sinus o‘smasi
 - xoriokarsinoma
 - dermoid kista nospetsifik tipi

NEYROENDOKRIN O‘SMALAR

- Neyroendokrin karsinomalar
 - mayda hujayrali neyroendokrin karsinoma
 - yirik hujayrali neyroendokrin karsinoma
- Aralash neyroendokrin neyroendokrin bo‘lmagan o‘smalar
- Aralash adenokarsinoma neyroendokrin karsinoma bilan

3. Tekshiruv usullari, uslublari, tibbiy muolajalar yondashuvlari va tashxislash jarayonlari.

Tashxislash mezonlari:

- Shikoyatlari va anamnez:

- Jinsiy yo‘llardan atsiklik qonli, suvli, yiringsimon ajralmalar kelishiga;
- Qorin pastki qismi va beldagi tortuvchi og‘riqqa;
- Menopauza fonida qon kelishiga.

Anamnez:

- Bachadon bo‘yni karsinoma uchun patognomonik shikoyatlar yo‘q. Qoida tariqasida, kasallik 1 yildan 5 yilgacha yoki undan ko‘proq davom etishi mumkin bo‘lgan aniq preinvaziv bosqichga ega. Mikroinvaziv bachadon bo‘yni karsinomasi ko‘pincha tasodifiy murojat qilinganda topiladi. Ib1- Ila2 bosqichida bachadon bo‘yni saratoni tashxisi qo‘yilgan ayollarni ginekolog murojatlarining sababi jinsiy yo‘llardan qon ketish hisoblanadi. Keyingi kechiroq bosqichlarda (Iib-IVa) bel sohasida, qorinning pastki qismida og‘riq shikoyatlari qo‘shiladi.

- Fizikal tekshiruvlar [1, 3]:

Ginekologik ko'rik:

- Tashqi jinsiy a'zolarining holati;
- ko'zgularda qin va bachadon bo'yni tekshiruvi (qin infiltratsiyasi, qin devorlarida metastatik o'choqlar mavjudligi, hajmi, bachadon bo'yni holati);
- patologik (yiringli, qonli) ajralmalarning mavjudligi.

Bimanual ko'rik:

- bachadon o'lchami va shakli;
- ortiqlarining holati;
- parametriyda infiltratlar;
- oldingi va orqa qin gumbazining infiltratsiyasi.

Laborator tekshiruvlar:

- sitologik tekshiruvlar – PAP test (hujayra hajmining gigantgacha o'sishi, hujayra ichidagi elementlarning shakli va sonining o'zgarishi, yadro hajmining oshishi, uning konturlari, yadro va boshqa hujayra elementlarining turli darajadagi yetukligi, yadrochalar soni va shaklining o'zgarishi);
- gistologik tekshiruv (kuchli hujayra polimorfizmi, hujayra o'lchamlarining kattalashishi, kuchli gipoxromiya, katta yadrolarda bir yoki bir nechta yadrochalar mavjud, rozetka shaklida saraton hujayralarining bezli tuzilmalari, mitoz holatidagi ko'plab hujayralar mavjud);

Instrumental tekshiruvlar:

- kichik chanoq a'zolari UTTsi (agar bachadon bo'yni saratoniga shubha qilingan bo'lsa, bachadon bo'yni o'lchamlari normal yoki kattalashadi, uning tuzilishi geterogen bo'lib, bachadon va tuxumdonlarning holati ham baholanadi);
- kichik chanoq a'zolarining magnit-rezonans tomografiyasi (BBSda bachadon bo'yni o'lchamlari normal yoki kattalashadi, uning tuzilishi geterogen bo'lib, bachadon va tuxumdonlarning holati ham baholanadi);
- ko'krak qafasi, qorin bshlig'i va kichik chanoq a'zolari kompyuter tomografiyasi (kichik chanoq va qorin parda orti soha limfa tugunlarini, ko'krak va qorin bo'shlig'i organlaridagi organik o'zgarishlarni baholash);
- ko'rsatmalarga ko'ra sistoskopiya (o'sma jarayonining qovuqqa o'sib o'tishini tashhishlash maqsadida) qovuqqa o'sib o'tishga gumon bo'lganda buyuriladi.

- ko'rsatmalarga ko'ra rektoromanoskopiya yoki kolonoskopiya (o'sma jarayonining yo'g'on yoki to'g'ri ichakka o'sib o'tishini tashhishlash maqsadida);
- skeletni ssintigrafiyasi (suyaklarga metastazlar bo'lganda buyuriladi);
- butun tana PEK/KTsi (birlamchi endometriy saratonida yoki kasallikning progressiyalanishida o'sma jarayonining tarqalishini aniqlash yoki maxsus davolash samaradorligi dinamikasini baholash uchun amalga oshiriladi).
- O'sma materialida PD L1 va MSI ni aniqlash (birlamchi radikal davolanishdan keyin kasallik progressiyalanganda yoki terapiyani boshlashdan oldin birlamchi tarqalgan jarayon mavjud bo'lganda).

Jarrohlik yo'li bilan olib tashlangan o'sma preparatining gistologik tekshiruvi quyidagi parametrlarni aks ettirishi kerak:

1. O'smaning gistologik tipi;
2. O'smaning differentsiatsiya darajasi;
3. O'smaning o'lchamlari (uch o'lchami);
4. O'sma invaziyasi chuqurligi;
5. O'smaning eng ko'p invaziyalangan joyida bachadon bo'ynining qalinligi;
6. Qon yoki limfa tovirlarida o'sma embolarining mavjudligi/mavjud emasligi;
7. Qinni rezeksiya qirg'oqlarida, parametriyda, bachadon bo'ynining rezeksiya qirg'oqlarida o'sma (konizatsiya/amputatsiya yoki traxelektomiya bajarilganda); rezeksiya qirg'og'i yaqin bo'lganda, rezeksiya qirg'og'idan o'smagacha bo'lgan masofa ko'rsatiladi;
8. O'smaning qinga o'tishi;
9. Parametriyning o'ngdan, chapdan o'sma bilan zararlanishi;
10. o'ng va chap parametriydan olib tashlangan va zararlangan limfa tugunlarining umumiy soni; metastazlarning hajmi mm da (izolyatsiyalangan o'sma hujayralari/mikrometastazlar/makrometastazlar);
11. o'ng va chap tomondan olib tashlangan va zararlangan tos limfa tugunlarining umumiy soni; metastazlarning hajmi mm da (izolyatsiyalangan o'sma hujayralari/mikrometastazlar/ makrometastazlar);
12. o'ng va chap tomondan olib tashlangan va zararlangan bel limfa tugunlarining umumiy soni; metastazlarning hajmi mm da (izolyatsiyalangan o'sma hujayralari/mikrometastazlar/ makrometastazlar); o'smaning bachadon tanasiga o'tishi;
13. tuxumdonlarining metastatik zararlanishi;

14. o'smaning qovuq, to'g'ri ichak devoriga o'sib o'tishi (ekzenteratsiya yoki qo'shni a'zolar rezeksiyasi bajarilganda);
15. operatsiyadan oldingi terapiya bajarilgan holatlarda, birlamchi o'sma va limfa tugunlari metastazlarining terapevtik patomorfoz darajasi, terapevtik patomorfoz darajasi baholanadigan tasnifga asosan baholanadi

- Muolaja va aralashuvga tayyorlashda asosiy tekshirish usullari:

1. QUT leykoformula va trombositlar miqdorini hisoblash bilan;
2. Qon biokimyoviy tahlyoki (natriy, kaliy, kalsiy, glyukoza, mochevina, kreatinin, siydik kislotasi, umumiy oqsil, albumin, umumiy bilirubin, bevosita bilirubin, LDG, AST, ALT, SRB, ishqoriy fosfotaza);
3. AVO tizimi bo'yicha qon tuguhini aniqlash;
4. Rezus-faktorni aniqlash;
5. Peshob umumiy tahlili;
6. Koagulogramma (ACHTV, PV, MNO, PTI, fibrinogen);
7. Koptokcha filtratsiyasi tezligini aniqlash;
8. IFA yoki IXL usulida virusli gepatit B va C markerlarini aniqlash
9. IFA usulida OIV-infeksiyani aniqlash (HIVAg/anti-HIV);
10. B va C virusli gepatitlari uchun PZR (sifatli)
11. Zahmga serologik reaksiyalar majmuasi;
12. Ginekologik ko'rik va rektovaginal tekshiruv;
13. Kolposkopiya, bachadon bo'ynidagi barcha shubhali sohalardan biopsiya, zarurat bo'lsa — bachadon bo'yni konizatsiyasi;
14. Kompleks ultratovush tashxislash (bachadon bo'yni, tanasi, ortiqlari, tuxumdonlar, jigar, o't qopi, me'da osti bezi, taloq, buyraklar va periferik limfa tugunlari);
15. Kichik chanoq v/i kontrastlash bilan magnit-rezonans tomografiyasi;
16. Ko'krak qafasi, qorin bo'shlig'i va qorin parda orti kompyuter tomografiyasi;
17. Bioptatni sitologik tekshirish (limfa tuguni, hosilani)*
18. Bioptatni gistologik tekshirish (limfa tuguni, hosilani)*
19. Bioptatni immunogistoximik tekshirish (limfa tugunini, hosilani, trepano bioptatni)
20. Sistoskopiya
21. Rektoromanoskopiya;
22. Ekskretor urografiya, renografiya;

- 23.EKG;
- 24.ExoKG;
- 25.Butun tana PET/KTsi**;
- 26.Kontrastlash bilan MSKT ***;

- Muolaja va aralashuvga tayyorlashda qo‘shimcha tekshirish usullari:

- 1. PZR usulida Ebshteyn-Barr virusi, 1-2 tip herpes, sitomegalovirus, toksoplazmoz;
- 2. B va C gepatit viruslariga PZR (miqdoriy);
- 3. SOVID-19ga PZR;
- 4. Qonni kislota ishqoriy holati (KIH) va gazlarga aniqlash;
- 5. Bevosita va bilvosita Kumbs reaksiyasi;
- 6. Standart sitogeneti tekshirish;
- 7. FISH usulida va molekular-genetik tekshirish;
- 8. Ferritin, folatlar, zardob temiri, Vitamin V12ni aniqlash;
- 9. ProBNP
- 10.Prokalsitonin
- 11.Antitrombin III, D-dimer
- 12.Qon zardobida LDG, XG va AFPni aniqlash;
- 13.Fertil yoshidagi ayollarda – homiladorlikka test, XGCHni aniqlash;
- 14.Miyelogramma;
- 15.Periferik qon IFTsi;
- 16.Inson T-limfotrop virusi I/II-IgG ga antitana;
- 17.Standart –sitogenetik tekshirish;
- 18.FISH va PZR usulida molekular-genetik tekshirish;
- 19.Burun yondosh bo‘liqlari rentgenografiyasi;
- 20.Ortopantomogramma;
- 21.Bosh, bo‘yin va qorin bo‘shlig‘ini kontrastli KTsi;
- 22.FGDS;
- 23.Bronxoskopiya;
- 24.Kolonoskopiya;
- 25.Qorin bo‘shlig‘i a’zolarining kontrast rentgen tekshiruvi;

26. Tomirlar (vena va/yoki arteriyalar) UTDGsi;
27. Spirografiya;
28. Bosh miya MRTsi;
29. Skelet suyaklarini rentgenografiyasi yoki ssintigrafiyasi (suyaklarni metastatik shikastlanishiga gumon bo'lganda);
30. Plevra bo'shliqlari, periferik limfa tugunlari, qalqonsimon bez UTTsi;
31. Holter – monitorlash bilan EKG.

* Agar avval o'tkazilmagan bo'lsa.

** Kasallikning boshlanishida va qayta bosqichlash paytida bajarish kerak.

*** PET/KT o'tkazish mumkin bo'lmagan hollarda.


- Tor mutaxassislarning konsultativ ko'ruvi uchun ko'rsatmalar:

- **Mammolog ko'rigi** (ko'krak bezi tomonidan patologiya bo'lganda);
- **Kardilog ko'rigi** (50 yosh va undan katta bemorlarda, shuningdek, YUQT da patologiyasi bo'lgan 50 yoshdan kichik bemorlar);
- **Abdominal onkolog ko'rigi** (qorin bo'shlig'i a'zolarida hajmli hosila belgilari bo'lgan ayollarda, oilaviy, birgalikda keluvchi saraton turlarini istisno qilish maqsadida);
- me'da saratonini davolash boshlanishidan oldin **akusher-ginekolog/reproduktologning maslahati** zarur, agar bemor kelajakda farzand ko'rishni xohlasa, ad'yuvant reproduktiv texnologiyalarning mumkin bo'lgan variantlarini muhokama qilish, shuningdek, tug'ish yoshidagi bemorlarda o'smaga qarshi dori terapiya si davrida, yaqin kelajakda va undan keyin istalmagan homiladorlikning oldini olish uchun ishonchli kontratseptiv vositalardan foydalanish masalasida [5];
- **nevropatolog ko'rigi** (qon tomir miya kasalliklarida, shu jumladan insult, miya shikastlanishi, epilepsiya, miasteniya, neyroinfeksion kasalliklar, shuningdek, ongni yo'qotishning barcha holatlarida);
- **endokrinolog ko'rigi** (endokrin a'zolari tomonidan hamroh kasalliklari bo'lgan taqdirda);
- **qon-tomir jarrohi ko'rigi** (varikoz kasallik, tug'ma/orttirilgan tomirlar patologiya mavjud bo'lgan hollarda);
- **pulmonolog ko'rigi** (o'pka parenximasida qoldiq patologiyalar mavjud bo'lganda, bakterial / virusli / noaniq genezli yallig'lanish jarayonidan keyin).
- hamroh patologiyalar mavjud bo'lganda, **boshqa mutaxassislar ko'riklari**: ftiziatr

(anamnezdagi sil kasalligi bo'lsa), yuqumli kasalliklar bo'yicha mutaxassis (surunkali gepatit bo'lsa) va boshqalar.

- **nefrolog ko'rigi** (buyrak patologiyasi, giperazotemiya mavjud bo'lganda).

- Diagnostik algoritm:



- Qiyosiy tashxis va qo'shimcha tekshiruvlarni asoslash [3, 4].

3-jadval. Qiyosiy tashxis va qo'shimcha tekshiruvlarni asoslash

Tashxis	Qiyosiy tashxis	tekshirish	Tashxisni inkor
---------	-----------------	------------	-----------------

	uchun asoslash		qilish mezonlari
Bachadon bo'yni ektopiyasi	- jinsiy yo'lardan ajralmalar kelishi - yorqin qizil rangdagi psevdoroziya o'chog'i	Kolposkopiya PAP–testga surtmalar olish	Hudud ko'plab yumaloq yoki cho'zinchoq qizil so'rg'ichlar bilan qoplangan bo'lib, bu baxmal yuza effektini yaratadi. Yorqin qizil rang bir qator silindrsimon hujayralar qatori orqali ko'rinadigan pastdagi stroma tomirlari bilan bog'liq. «Transformatsiya sohasi» ektopiya sohasidagi metaplaziyalangan va yetilmagan ko'p qavatli yassi epiteliy, bezlarning ochiq va yopiq yo'llari.
CIN	-bachadon bo'ynining ko'rinuvchi o'zgargan sohalari -Og'riqsiz -jinsiy yo'llardan ajralmalar.	-kolposkopiya - PAP–testga surtmalar olish -biopsiya	Kolposkopik surat: oqish yaltiroq plenka ko'rinishidagi, epiteliyning shohsimon qaqati hisobiga taxlangan yoki g'adir-budir yuzali yod negativ soha. Yakuniy tashxis gistologik tekshiruv asosida qo'yiladi.

4. Ambulatoriya darajasida davolash taktikasi [10]: yo'q.

5. Tibbiy yordam ko'rsatish turidan kelib chiqib shifoxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalari:

1) Rejali yordam ko'rsatish shifoxonasiga yotqizish uchun ko'rsatmalar:

- Verifikatsiya qilingan bachadon bo'yni saratoni;
- Kurabel bemorlar.

2) Шошилинч ёрдам кўрсатиш шифохонасига ётқизиш учун кўрсатмалар:

- ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan turlarini talab qiladigan saraton kasalligining asoratlari mavjudligi;
- onkologik kasalliklarni davolash (jarrohlik aralashuvi, NT, dori terapiya si va boshqalar) ning asoratlari mavjudligi.

6. Statsionar darajasida davolash taktikasi [11-13,23-25].

1) Davolashdan maqsad:

- xavfli o'smani a'zo bilan to'liq yoki qisman olib tashlash;
- o'sma jarayonining to'liq yoki qisman regressiyasi, stabilizatsiyasiga erishish.

Bachadon bo'yni saratonini davolash usullarini tanlash ko'plab omillarga, shu jumladan o'smaning o'lchamlariga, boshqa a'zo, to'qimalar va limfa tugunlarining jarayonga jalb qilinganligiga bog'liq.

Bemorda hamroh kasalliklarning (og'ir yurak, o'pka, buyrak kasalliklari) mavjudligi muhim omil hisoblanadi.

Mutaxassislar bu omillarning barchasini hisobga olishadi. Bemor uchun jarrohlik davolash va/yoki kimyo terapiya dan iborat bo'lgan individual reja ishlab chiqiladi.

4-jadval. Bosqichlar bo'yicha davolash taktikasi [11,12]

Bosqich	Davo turi
CIN III	Bachadon bo'ynini keng konizatsiyasi / total gisterektomiya
IA1	Bachadon bo'ynini keng konizatsiyasi / total gisterektomiya
IA2	Total gisterektomiya ortiqlar bilan/ortiqsiz +tos limfodisseksiyasi (Priver bo'yicha II tip) /traxeletomiya+tos limfodisseksiyasi/ Jarrohlik davosiga qarshi ko'rsatmalar bo'lganda – nur terapiyasi
IB1	Radikal gisterektomiya +tos limfodisseksiyasi (Priver bo'yicha III tip) yosh ayollarda tuxumdonlar transpozitsiyasi bilan / radikal dastur bo'yicha NT yoki XNT. Progressiyalanishning yuqori xavfida – ad'yuvant XNT.

	Oraliq xavf guruhida – ad'yuvant NT. Past xavf guruhida – ad'yuvant davolash o'tkazilmaydi
IB2- IIA	Radikal gisterektomiya +tos limfodisseksiyasi (III tipda) yosh ayollardan tuxumdonlar troanspozitsiyasi bilan / radikal dastur bo'yicha XNT / neoad'yuvant XT+ Radikal gisterektomiya III tipda. Progressiyalanishning yuqori xavfida – ad'yuvant XNT. Oraliq xavf guruhida – ad'yuvant NT. Past xavf guruhida – ad'yuvant davolash o'tkazilmaydi
IIB-IVA	Ximionur terapiya
IVA	Tizimli XT

Bosqichlarga qarab davolash

Mikroinvaziv saraton:

- IA1 yoki IA2 bosqichidagi bachadon bo'yni saratoni tashxisi, faqat rezektsiya qirralari manfiy bo'lgan bachadon bo'yni konusining morfologik tekshiruvda yoki traxeletomiya yoki gisterektomiyadan keyin olib tashlangan makropreparat asosida qo'yiladi. Bachadon bo'yni konizatsiyasidan keyin qirralarda CIN III yoki invaziv saraton aniqlangan taqdirda, kasallikning IB1 bosqichidagi kabi bemorni takroriy konizatsiya qilish yoki davolash kerak.

IA1 bosqich (invaziya ≤ 3 mm; gorizontalar tarqalish inobatga olinmaydi):

- BBSni ushbu bosqichdagi asosiy davolash usuli total abdominal yoki qin gisterektomiyasi hisoblanadi.

- Qin intraepitelial neoplaziya mavjud bo'lganda, qin naychasining tegishli qismini olib tashlash kerak. Agar fertillikni saqlab qolish zarur bo'lsa, bachadon bo'yni keng konizatsiya qilinganidan keyin, agar Pap testi o'tkazilsa, rezektsiya qirralari manfiy natijasi bo'lsa kuzatuv o'tkazilishi mumkin. Pap testi 6, 12 oy ichida va undan keyin har yili o'tkaziladi, agar oldingi ikkita test salbiy bo'lsa (DD –B) [4,7].

- Limfa yoriqlarida emboliya bo'lmaganda BBS IA1 bosqichida jarrohlik aralashuvning yetarli hajmi - bachadon bo'yni kanalining qolgan qismini va ko'rsatmalarga ko'ra bachadon bo'shlig'ini qirib olish bilan bachadon bo'yni konizatsiyasi hisoblanadi. Rezektsiya qirrasida va bachadon bo'yni kanalining qolgan qismidan qirindida o'sma bo'lmasa, bachadonni ekstirpatsiya qilish maqsadga muvofiq emas, chunki bu davolash natijalarini yaxshilamaydi.

- Agar bachadon bo'yni rezektsiyasining chekkalarida yoki bachadon bo'yni kanalining qolgan qismidan olingan qirindida displazi (CIN III) yoki saraton hujayralari topilsa, takroriy konizatsiya qilish kerak. Agar konizatsiya qilishning iloji bo'lmasa,

davolash IB1 bosqichdagi kabi amalga oshiriladi.

- Limfovaskulyar invaziya mavjud bo'lganda va tug'ish funksiyasini saqlab qolish zarurati bo'lmasa, bachadonni I tipdagi jarrohlik yo'li bilan ekstirpatsiya qilish yoki o'zgartirilgan bachadon ekstirpatsiyasi (II turdagi jarrohlik va tos limfa dissektsiyasi (extimol BSLU) ko'rsatma bo'ladi. Yosh bemorlarda (45 yoshgacha) bachadonni olib tashlashda ularning transpozitsiyasini amalga oshirish orqali tuxumdonlarning funksiyasini saqlab qolish mumkin.

- Limfovaskulyar invaziya mavjud bo'lganda va bola tug'ish funksiyasini saqlab qolish zarur bo'lganda, bachadon bo'yni kanalining qolgan qismidan qirindi olish yoki traxelektomiya (I yoki II turdagi jarrohlik) va tos limfa dissektsiyasi (ehtimol BSLU bilan) bilan bachadon bo'yni konizatsiyasi ko'rsatma bo'ladi.

IA2 bosqich (invaziya > 3 mm va ≤ 5 mm, gorizontal tarqalish inobatga olinmaydi)

- IA2 bosqich kasalligi bo'lgan bemorlarda limfogen metastazlanish uchun ma'lum bir potentsial mavjud va shuning uchun jarrohlik davolash paytida tos limfadenektomiyasini o'tkazish kerak. Ushbu klinik holatlar uchun yetarli operatsiya ikki tomonlama tos limfadenektomiyasi bilan to'ldirilgan o'zgartirilgan radikal gisterektomiya (2-tipdagi amaliyot) hisoblanadi. Dastlabki biopsiya ma'lumotlariga ko'ra limfovaskulyar invaziya bo'lmasa, tos limfadenektomiyasi bilan ekstrafastsial ekstirpatsiya (1-turdagi jarrohlik) bajarilishi mumkin [11] (DD-C).

- Asosiy jarrohlik kirish yo'li laparotomiya hisoblanadi. Agar bemor laparoskopik kirishni talab qilsa, laparoskopik kirish bilan kengaytirilgan bachadon ekstirpatsiyasini amalga oshirishda unga uzoq muddatli onkologik davolash natijalarining yomonlashishi xavfi haqida ogohlantirish kerak.

Fertillikni saqlab qolish istagi bo'lganda, quyidagilar extimoliy davolash variantlari hisoblanadi:

- bachadon bo'ynini keng konizatsiyasi, qo'shimcha ekstraperitoneal yoki laparoskopik tos limfa tugunlarini olib tashlash bilan;
- radikal traxelektomiya, tos limfa tugunlarini olib tashlash bilan.

- Modifikatsiyalangan kengaytirilgan bachadon ekstirpatsiyasi(II/V tipdagi jarrohlik amaliyoti va tos limfadiissektsiyasi (ehtimol BSLU bilan)) ko'rsatilgan. Yoshlarda (45 yoshgacha) tuxumdonlarning transpozitsiyasini bajarish orqali ularning funksiyasini saqlab qolish mumkin.

- Limfovaskulyar invaziyadan qat'i nazar va tos limfa tugunlarida metastazlar bo'lmasa, fertillikni saqlab qolishni istagan yosh bemorlarga kengaytirilgan traxelektomiya (II/V tipi) taklif qilinishi mumkin.

- Fertillikni saqlab qolishni istagan yosh bemorlarda bachadon bo‘yni amputatsiyasi, bachadon bo‘yni kanalining qolgan qismini qirib olish (rezektsiya chetida va bachadon bo‘yni kanalining qolgan qismidan olingan qirindida o‘sma yo‘qligi) va tos limfadiissektsiyasi (ehtimol BSLU bilan) miqdorida ultrakonservativ davolashni amalga oshirish mumkin.

- Reproduktiv funktsiyani saqlab qolishni istamaydigan bemorlarda limfovaskulyar invaziya bo‘lmasa, bachadonni ekstirpatsiya qilish (I/A tipdagi jarrohlik va tos limfadiissektsiyasi (ehtimol BSLU bilan)) miqdorida ultrakonservativ davolashni amalga oshirish mumkin.

- jarrohlik davosiga qarshi ko‘rsatma bo‘lganda yoki bemor istagiga ko‘ra NT o‘tkazilishi mumkin.

- Ushbu ugurh bemorlarini kuzatuvi, eng avvalo, har 6 va 12 oyda o‘tkazilgan ikkita manfiy testdan so‘ng, har yillik Pap-testga asoslangan.

IB1-IIA1 bosqich

Jarrohlik davosi.

- BBSning standart jarrohlik davosi tos limfadiissektsiyasi bilan birgalikda radikal abdominal gisterektomiya hisoblanadi. Jarrohlik davosini faqat abdominal kirish bilan bajarish zarur.

Bosqichlar bo‘yicha nur terapiyasi: [6,8,9]

IB2-IIIC bosqich.

Konkurent kimyo-nur terapiya: davolashning eng keng tarqalgan usuli – platina preparatlari bilan har haftalik konkurent kim terapiya bilan birgalikda qo‘shma nur terapiyadir.

- nur terapiyaning tavsiya etilgan dozasi A nuqtaga 85 – 90 Grey, B nuqtaga 55 – 60 Grey. Sisplatin 40 mg/m² dozada, har hafta, nur terapiyaning distantsion komponenti fonida. Paraaortal va umumiy yonbosh limfa tugunlariga metastazli bemorlarda nurlanish maydonini paraaortal sohalargacha kengaytirish zarur. Hozirgi kunda nurlanish maydonini kengaytirish bilan konkurent kimyo-nur terapiyaning toksikligi haqidagi ma'lumotlar kam (DD –A).

- Mahalliy tarqalgan bachadon bo‘yni saratoni (kasallikning IIB,III va IVA bosqichlarini o‘z ichiga oladi).

- Standart nur terapiyaning konkurent kimyo terapiya bilan birga qo‘llanilishi standart davolash usuli hisoblanadi (DD – A). BBSning I bosqichida ae'yuvant nur/kimyo-nur terapiyaning buyurilishi masalasi, printsipl jihatdan yirik patolog

jarrohlik tadqiqoti asosida ishlab chiqilgan GOG shkalasi asosida hal qilinadi.

5-jadval. GOGning ball shkalasi

Belgi	Ko'rsatkich	Nisbiy havf
Stromaga invaziya chuqurligi, mm da		
Yuzaki	3	1.0
	4	3.0
	5	7.2
	6	14
	7	21
	8	26
	10	31
O'rta	5	20
	6	22
	7	23
	8	25
	10	28
	12	32
	14	36
Chuqur	7	28
	8	30
	10	34
	12	37
	14	41
	16	45
	18	49
	20	54
O'smaning klinik o'lchami	ko'rinmas	1.0
	1	1.6
	2	1.9
	3	2.4
	4	2.9

	6	4.4
	8	6.6
Limfo-vaskulyar invaziya	Bor	1.7
	Yo‘q	1.0

- Summa ballov GOG ballari summasi invaziya uchun nisbiy havf, o‘smaning o‘lchamlari va limfovaskulyar invaziya ko‘rsatkichlarini ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblanadi. Masalan, invaziya chuqurligi 7,0 mm, o‘lchamlari 2,0 sm, LVI si bo‘lgan yuzaki o‘sma, quyidagi ballga ega bo‘ladi: $21 \times 1.9 \times 1.7 = 67.8$

- Ballar soni ≤ 40 bo‘lsa, retsdiv rivojlanishi havfi past bo‘ladi. Shuning uchun ad'yuvant nur terapiya talab etilmaydi. Ballar yig‘indisi 40 dan 120 gacha bo‘lganda, o‘rta havfga, 120 dan yuqori bo‘lganda esa – yuqori ega bo‘ladi. Bunday holatlarda ad'yuvant terapiya masalasini hal qilish kerak bo‘ladi.

IVA bosqich:

- Ayniqsa qovuq yoki rektal oqma mavjud bo‘lganda, birinchi bosqichda, tos a'zolarining ekzenteratsiyasini amalga oshirish mumkin, ammo bu radikal dasturga muvofiq kimyo-nur terapiyaga qarshi ko‘rsatma emas. (DD-C).

IVB bosqich va retsdivlar:

- Birlamchi radikal gisterektomiyadan keyin retsdivlarni davolashning mumkin bo‘lgan usullari: radikal gisterektomiyadan keyin tos bo‘shlig‘idagi retsdivlarni nur terapiyasi bilan ham, jarrohlik yo‘li bilan ham (tos a'zolarining ekzenteratsiyasi) davolash mumkin. Birlamchi jarrohlik davolashdan so‘ng lokal tos a'zolarining retsdivlarini radikal dasturga muvofiq nurlanish (\pm konkurent kimyo terapiya) bemorlarning katta qismida samarali bo‘ladi. Nur terapiyasining dozasi va hajmi kasallikning tarqalishi bilan aniqlanishi kerak. O‘sma o‘lchamlari mikroskopik bo‘lsa odatdagi doza 50 Gr, BMO‘D 1,8 – 2,0 Gr, kamaytirilgan nurlanish maydonlari bilan, katta o‘lchamdagi o‘smalarda esa doza 64 – 66 Grey ni tashkil qiladi.

6-jadval. BBSni jarrohi davosidan so‘ng mahalliy retsdivlar [10,11].

Tavsiyalar	Dalillar darajasi
Nur terapiya radikal gisterektomiyadan keyingi mahalliy retsdivli bemorlarga ko‘rsatilgan	C
Sisplatin qo‘shish bilan va 5-Ftoruratsil bilan/usiz konkurent kimyo-nur terapiya davolash samaradorligini yaxshilaydi	B
Tos ekzenteratsiyasi tos devorlariga tarqalmagan nur va	B

Nur terapiyaning radikal kursidan so'ng mahalliy retsidivlarda:

Markazda lokalizatsiyalangan, qovuq va to'g'ri ichak jalb bo'lgan retsidivli bemorlarda, intraperitoneal disseminatsiya va uzoq metastazlar yo'qligida, bachadon bo'yni va tos devorlari o'rtasida bo'sh joy mavjud bo'lgan bemorlar tos bo'shlig'i ekzenteratsiyasi uchun potentsial nomzodlar hisoblanishadi.

Uzoq metastazlar: Nur terapiyasi simptomatik o'sma metastazlarida palliativ davolash sifatida ko'rsatma bo'ladi, masalan, suyak metastazlari, kattalashgan paraaortal, o'mrov osti limfa tugunlarida yoki og'riqni yo'qotish uchun miya metastazlari uchun.

Kasallikning progressiyalanishida o'sma materialida PDL1 ni aniqlash tavsiya etiladi. O'smada PDL1 ekspressiyasi $> 1\%$ bo'lganda pembrolizumab tanlangan dori hisoblanadi.

BBSning jarrohlik amaliyotidan keyingi topilmalari.

Ushbu topilmalar asosan boshqa ko'rsatkichlarga asosan o'tkazilgan oddiy gisterektomiyadan so'ng tashxis qo'yilgan invaziv BBS holatlariga tegishli. Bunday holatlarda davolanishni boshlashdan oldin, hajm bo'yicha quyidagi qo'shimcha tekshiruv zarur: tos va qorin bo'shlig'i a'zolarining KT yoki MRTsi, jarayonning tarqalishini aniqlash uchun ko'krak qafasi rentgenogrammasi. Davolash usuli morfologik tekshiruv ma'lumotlari va rentgenologik topilmalar asosida belgilanishi kerak.

Patologik topilmalar mavjud bo'lmasa:

IA1 bosqichda qo'shimcha davo o'tkazilmaydi. IA2 va undan yuqori bosqichlarda quyidagi davo o'tkazish zarur.

a) rezektsiya qirg'oqlari musbat bo'lganda, chuqur stromal invaziyada, limfavaskulyar soha zararlanganda konkurent kimyo-nur terapiya buyuriladi [38].

b) chuqur stromal invaziyasi bo'lmagan, rezektsiya qirg'oqlari manfiy va limfavaskulyar soha zararlanmagan bemorlarda konkurent kimyo-nur terapiyaga alternativa sifatida qinning yuqori uchligi yoki limfadenektomiya bilan radikal parametrektomiya buyuriladi (DD –C).

Homiladorlik vaqtida BBS.

- Homiladorlik davrida bachadon bo'yni saratonini davolash homilador bo'lmagan ayollarda bo'lgani kabi bir xil printsiplarga asoslanadi. Faqat bir nechta maxsus tavsiyalar mavjud. Servikal konizatsiya faqat qon ketish, homiladorlikning tugashi yoki erta tug'ilish xavfi yuqori bo'lganligi sababli sitologik tekshiruv va kolposkopiya ko'ra invaziv o'sishga shubha qilingan taqdirda amalga oshiriladi. Bachadon bo'yni saratoni

bilan kasallangan homilador ayollarni boshqarish taktikasini aniqlashning eng muhim sharti rentgenolog va kimyoterapevtidan tashqari neonatolog va akusher-ginekologni jalb qiladigan multidistsiplinar yondashuvdir.

- Qaror qabul qilishda ayolning o'zi va uning kumr yo'ldoshi qatnashishi zarur va ularni homiladorlikni saqlab qolish istaklari inobatga olinishi kerak.

- Mikroinvaziya BBSga gumon bo'lgan bemorlarda davoni kechiktirish onaga zarar yetkazmaydi va homilaning hayotga layoqatini ishonarlim ko'tarilishi bilan namoyon bo'ladi.

- Kasallikning IA1 bosqichidagi ayollar, konizatsiya qilinganda va rezektsiya qirg'oqlari manfiy bo'lganda, homiladorlikni olib yurishlari mumkin va tabiiy tug'ruq yo'llari orqali tug'ishlari mumkin.

- Mikroinvaziv bachadon bo'yni kartsinomasida tug'riqni hal qilish usuli kasallikning natijasiga ta'sir qilmaydi. IA2 va undan yuqori kasallikning bosqichida davolanish individual ravishda tanlanishi kerak, asosan davolash usuli va uning vaqti to'g'risidagi qaror kasallikning bosqichiga va homiladorlikning davomiyligiga asoslanadi. MRT jarayonning tarqalishini baholash uchun amalga oshiriladi. Agar homiladorlikning 20 xaftaligidan oldin tashxis qo'yilsa, davolanishni darhol boshlash kerak. Tanlash usuli-homila in situ bilan radikal gisterektomiyadir. Kimyo-nur terapiya paytida, qoida tariqasida, homiladorlikni to'xtatish amalga oshirilmaydi, chunki davolanish boshlanganidan keyin o'z-o'zidan tushish sodir bo'ladi.

- Agar homiladorlikning 28 xaftaligidan keyin bachadon bo'yni saratoni aniqlansa, hayotga layoqatli homila olinmaguncha davolanishni kechiktirish tavsiya etiladi. Homiladorlikning 20-28 xaftaligidan IA2 va IBI bosqichlarida bachadon bo'yni saratonini davolash onaning prognoziga sezilarli ta'sir ko'rsatmasdan, hayotiy homila olinmaguncha qoldirilishi mumkin. Kasallikning IB1 dan yuqori bosqichida davolanishning kechikishi prognozni sezilarli darajada yomonlashtiradi va bemorlarning yashovchanligiga ta'sir qiladi.

- Shuni ta'kidlash kerakki, davolanishni boshlashni kechiktirish mumkin bo'lgan davrni aniqlash uchun standartlar mavjud emas. Amalda, kechiktirish davri kasallikning bosqichiga, morfologik topilmalarga, homiladorlikning davomiyligiga va ota-onalarning xohishiga bog'liq.

- Tug'ruq gestatsiyaning 34 haftasidan kechikmay amalga oshiriladi.

2) Bemorni kuzatish kartasi, bemorni marshrutizatsiyasi:

- BBS barcha bemorlari davo yakunlanganidan so'ng biriktirilgan hududi bo'yicha onkolog-ginekolog, onkolog, umumiy amaliyot shifokori tomonidan kuzatuvda bo'lishlari kerak.

- dastlabki 2 yil davomida – har 3 oyda;
- Uchinchi yil davomida – har 6 oyda;
- 4-chi yildan boshlab – har 12 oy (1 yil) da.

3) nomedikamentoz davvo:

• konservativ davvo paytida bemorning rejimi umumiydir. Operatsiyadan keyingi erta davrda – yotoq yoki yarim yotoq rejimi (operatsiya hajmiga va hamroh patologiyaga qarab). Operatsiyadan keyingi davrda – palata rejimi.

• diyet stol - №15, xirurgik davvordan so‘ng – №1, qandli diabetli bemorlarga stol №9.

- Psixolog ko‘rigi.

4) medikamentoz davvo

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tmagan dori vositalarining klinik bayonnomaga kiritilishi bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida va majburiy ijtimoiy tibbiy sug‘urta tizimida xarajatlarni qoplash uchun asos bo‘lmaydi.

Bir vaqtli kimyo-nur terapiya:

• Sisplatin – 40 mg/m² 60 daqiqali infuziya gidratatsiya bilan 1,8,15,22,29 va 36-kunlarnurlanishdan 4 yoat oldin, har hafta, 5 hafta davomida.

Kimyo terapiya.

kimyo terapiya – bu maxsus dorilar, sitostatiklar yordamida saraton hujayralarining o‘shini yo‘q qilish yoki sekinlashtirishga qaratilgan xavfli o‘smalarni tibbiy usulda davolashdir. kimyo terapiya bilan saratoni davolash individual ravishda tanlangan ma'lum bir sxema bo‘yicha muntazam ravishda amalga oshiriladi. O‘sma kimyo terapiya si sxemalari dorilarning ma'lum kombinatsiyalarini qabul qilishning bir necha kurslaridan iborat bo‘ladi va odatda shikastlangan tana to‘qimalarini tiklash uchun dozalar orasidagi pauzalar bilan amalga oshiriladi.

kimyo terapiya ning buyurilish maqsadiga qarab farqlanadigan bir nechta turlari mavjud:

- o‘smalarning neoad'yuvant kimyo terapiya si operatsiyadan oldin, nooperabel o‘smanni kichraytirish maqsadida, shuningdek operatsiyadan keyin buyurish uchun preparatlarga sezgirligini aniqlash maqsadida buyuriladi.
- ad'yuvant kimyo terapiya jarrohlik davosidan so‘ng metastazlanish va retsidivlar xavfini kamaytirish maqsadida buyuriladi.

- davolovchi kimyo terapiya metastatik saraton hujayralarini kichratirish maqsadida o'tkaziladi.

Lokalizatsiyaga va o'sma turiga bog'liq ravishda kimyo terapiya turli sxemalarda buyuriladi va o'z xususiyatlariga ega.

kimyo terapiya ga ko'rsatmalar:

- sitologik va gistologik tasdiqlangan bachadon bo'yini saratoni;
- mahalliy tarqalgan o'smalarni davolashda;
- uzoq a'zolarida va uzoq limfa tugunlarida metastazlar;
- o'sma retsidivi;
- bemorda qon surati qoniqarli bo'lishi: gemoglobin va gemokrit ko'rsatkichlarining me'yoriy bo'lishi;
- jigar, buyraklar, nafas tizimi va YuQT faoliyati saqlanganda;
- infiltratsiyani, o'sma o'lchamlarini kamaytirish va o'tkazilayotgan qo'shma nur terapiya va/yoki jarrohlik davosini radikalligini yaxshilash imkoniyati;
- bemor operatsiyadan bosh tortganda;
- o'sma yomon gistotipga ega bo'lganda (past differentsiallashtirilgan, differentsiallashtirilmagan), davolashning uzoq natijalarini yaxshilash.

kimyo terapiya ga qarshi ko'rsatmalar:

kimyo terapiya ga qarshi ko'rsatmalar ikki guruhga bo'lish mumkin: absolyut va nisbiy.

Absolyut qarshi ko'rsatmalar:

- gipertermiya >38 gradus;
- dekompensatsiya bosqichidagi kasalliklar (yurak-qon tomir , nafas olish tizimi, jigar, buyraklar);
- o'tkir infeksiyaon kasalliklarning mavjudligi;
- psixik kasalliklar;
- bitta yoki bir nechta mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan, ushbu davoning samarasizligi;
- o'smani parchalanishi (qon ketish xavfi);
- Karnovskiy shkalasi bo'yicha 50% va undan kam bemor umumiy ahvolidan

og'irligi (1-ilovaga qarang).

Nisbiy qarshi ko'rsatmalar:

- 16-18 haftalik homiladorlik;
- a'zoizm intoksikatsiyasi;
- faol o'pka tuberkulezi;
- qon tarkibining turg'un patologik o'zgarishlari (anemiya, leykopeniya, trombositopeniya);
- kaxeziya.

Kimyo terapiya sxemalari:

1. Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun va karboplatin AUC 5–6 v/i 1-chi kun har 3 haftada (DD-A)

2. Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun va sisplatin 60–75 mg/m² v/i 1-chi kun har 3 haftada (DD-A).

3. Doksorubitsin 50–60 mg/m² v/i 1-chi kun va sisplatin 50–75 mg/m² v/i 1-chi kun har 3 haftada (DD-A)

4. Ifosfomid 5000 mg/m² 24 soatlik infuziya mestna bilan – 400 mg/m² kuniga 2 marta va sisplatin 50 mg/m² v/i 1-kun. (DD-A)

5. Gemtsitabin 800-1000 mg/m² v/i 1-chi va 8-chi kunlar va sisplatin 50 mg/m² v/i 1-kun. (DD-A)

NB! Platina kombinatsiyalarni qo'llash imkoni bo'lmaganda, noplatalni kombinatsiyalarni qo'llash mkmkin.

Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun va topotekan 0,75 mg/m² 1-3 kunlar (DD-A).

Davolashning I liniyasida platina, paklitaksel va bevatsizumab preparatlari kombinatsiyasini qo'llash eng samarali hisoblanadi.

O'smada PDL1 (CPS \geq 1) yoki MSI H/dMMR ekspresiyasida bevatsizumab bilan birgalikda yoki usiz pembrolizumabni qo'shish tavsiya etiladi.

Ad'yuvant rejimda yoki I liniyada 6 sikl kimyo terapiya o'tkazish yoki davoni progressiyalanish yoki chidab bo'lmas toksiklikkacha davom ettirish tavsiya etiladi.

Pembrolizumab va bevatsizumabni 35 siklgacha o'tkazsa bo'ladi. Agar progressiyalanish erta kuzatilsa, progressiyalanishgacha davom ettiriladi. Neoad'yuvant maqsadda esa 2-3 kurs XT tavsiya qilinadi.

7-jadval. Bachadon bo'yni saratonida tavsiya etiladigan rejimlar.

Kimyo-nur terapiya
<ul style="list-style-type: none"> • Sisplatin 40 mg/m² v/i har hafta distantsion NT fonida, 6 yuborilish
Neoad'yuvant/ad'yuvant kimyo terapiya
<ul style="list-style-type: none"> • Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun + sisplatin 75 mg/m² v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Paklitaksel 175 mg/m²v/i 1-chi kun + karboplatin AUC5–6 v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Paklitaksel 80 mg/m² v/i har hafta + karboplatin AUC2 v/i har hafta, 6 yuborilish
Kimyo-nur terapiya
<ul style="list-style-type: none"> • Sisplatin 40 mg/m² v/i har hafta distantsion NT fonida, 6 yuborilish
I liniya kimyo terapiyasi
<ul style="list-style-type: none"> • Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun + sisplatin 75 mg/m² v/i 1-chi kun + bevatsizumab 1 15 mg/kg v/i 1-chi kun + pembrolizumab 200 mg v/i 1-chi kun, har 3 haftada (PD L1 ekspressiyasida CPS ≥ 1) • Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun + sisplatin 75 mg/m² v/i 1-chi kun + pembrolizumab 200 mg v/i 1-chi kun, har 3 haftada (PD L1 ekspressiyasida CPS ≥ 1) • Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun + karboplatin AUC5–6 v/i 1-chi kun + bevatsizumab 1 15 mg/kg v/i 1-chi kun + pembrolizumab 200 mg v/i 1-chi kun, har 3 haftada (PD L1 ekspressiyasida CPS ≥ 1) • Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun + karboplatin AUC5–6 v/i 1-chi kun + pembrolizumab 200 mg v/i 1-chi kun, har 3 haftada (PD L1 ekspressiyasida CPS ≥ 1) • Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun + sisplatin 75 mg/m² v/i 1-chi kun + bevatsizumab 1 15 mg/kg v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun + karboplatin AUC5–6 v/i 1-chi kun + bevatsizumab 1 15 mg/kg v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun + topotekan 0,75 mg/m² v/i 1–3 chi kunlari + bevatsizumab 1 15 mg/kg v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Paklitaksel² 175 mg/m² v/i 1-chi kun + sisplatin² 75 mg/m² v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Paklitaksel² 175 mg/m² v/i 1-chi kun + karboplatin² AUC5–6 v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Ifosfamid 5000 mg/m² v/i 24 soatlik infuziya (+ mesna 5000 mg/m²)³ 1-chi kun + sisplatin 75 mg/m² v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Sisplatin 50 mg/m² v/i 1-chi kun + gemtsitabin 1000 mg/m² v/i 1-chi va 8-chi kunlar, har 3 haftada • Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-chi kun + topotekan 0,75 mg/m² v/i 1-3-kunlari, har 3 haftada • Sisplatin 75 mg/m² v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Karboplatin AUC5–6 v/i 1-chi kun, har 3 haftada

<ul style="list-style-type: none"> • Etopozid 100 mg/m² v/i 1-3-kunlari + sisplatin 75 mg/m² v/i 1-chi kun, har 3 haftada (rejim BBSning mayda hujayrali turida maqsadga muvofiq)
Kimyo terapiya II liniyasi⁴
<ul style="list-style-type: none"> • Pembrolizumab 200 mg v/i 1-chi kun har 3 haftada yoki 400 mg v/i 1-chi kun har 42 kunda (PD L1 ekspresiyasida CPS ≥ 1 yoki o'smada MSI H/dMMR) • Mitomitsin 7,5 mg/m² v/i 1-chi kun, har 6 haftada. • Irinotekan 125 mg/m² v/i 1-chi, 8-chi, 15-chi kunlar, har 4 haftada. • Gemtsitabin 800–1000 mg/m² v/i 1-chi, 8-chi, 15-chi kunlar, har 3 haftada • Dotsetaksel 75 mg/m² v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Kapetsitabin 2500 mg/m² ichishga 1–14-chi kunlar, har 3 haftada • Bevatsizumab 7,5–15 mg/kg v/i 1-chi kun, har 3 haftada • Topotekan 1,5 mg/m² v/i 1–5-chi kunlar, har 3–4 haftada. • Ifosfamid 1200–1500 mg/m² v/i 1–5-chi kunlar (+ mesna 1200–1500 mg/m² v/i 1–5-chi kunlar)1, har 3 haftada • Vinorelbin 30 mg/m² v/i 1-chi va 8-chi kunlar, har 3 haftada • Sisplatin 50 mg/m² v/i 1-chi kun, har 3 haftada (platina unumlari qo'shib o'tkazilgan avvalgi davo yakunlangandan so'ng > 6 oy muddatda rivojlangan retsidivlarda) • Karboplatin AUC5 v/i 1-chi kun, har 3 haftada (platina unumlari qo'shib o'tkazilgan avvalgi davo yakunlangandan so'ng > 6 oy muddatda rivojlangan retsidivlarda)

¹ XTga bevatsizumabni qo'shilishi umumiy holati qoniqarli bo'lgan, me'da ichak va peshob-jinsiy toksiklik havfi past bo'lgan bemorlarga tavsiya etiladi.

² Anamnezida kichik chanoq sohasiga NT o'tkazilgan bo'lsa, paklitaksel, sisplatin va karboplatinning boshlang'ich dozalari 20%ga redutsiyalanishi mumkin; qoniqarli ko'targanda dozani standart miqdorgacha eskalatsiyalasa bo'ladi.

³ Mesna ifosfamid dozasiining 100% sutkalik dozasiida qo'llaniladi va kun davomida uchta in'ektsiyaga bo'linadi: ifosfamidni yuborishdan bevosita oldin, uning infuziyasi boshlanganidan keyin 4 va 8 soat o'tgach.

⁴ Kechki retsidivlarda (birlamchi davo yakunlangandan > 6 oy o'tgach) I liniya XTni takrorlash mumkin.

8-jadval. Asosiy dori-vositalarning ro'yxati (100% foydalanish ehtimoli bilan) [18, 21, 22, 25]:

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining XPN	Qo'llash tartibi	DD
Antratsiklinlar	Doksorubitsin	50–60 mg/m ² v/i 1-chi kun	A

Platina unumlari	Sisplatin	50–75 mg/m ² v/i 1-chi kun	A
Taksan qator o‘smaga qarshi preparatlar	Paklitaksel	175 mg/m ² v/i 1- chi kun	A
Platina unumlari	Karboplatin	AUC 5–6 v/i 1- chi kun	A
Alkillovchi birikmalar	Ifosfamid	1,6 mg/m ² v/i 1- 3-kunlari 1 soatlik infuziya	B
Taksan qator o‘smaga qarshi preparatlar	Dotsetaksel	75 mg/m ² v/i har 3 haftada	A
O‘smaga qarshi vositalar, antimetabolit	Gemtsitabin	1000 mg/m ² 1- chi va 8-chi kunlar	A
Ma'lumotlarni yuklab olish uchun (havolalar)	https://diseases.medelement.com/disease/%D1%80%D0%B0%D0%BA-%D1%88%D0%B5%D0%B9%D0%BA%D0%B8-%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%BA%D0%B8-%D0%BA%D0%BF-%D1%80%D0%BA-2023/17756		

9-jadval. Qo‘shimcha dori-vositalarning ro‘yxati (foydalanish ehtimoli 100% dan kam) [3, 4, 16, 18, 22]:

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining XPN	Qo‘llash tartibi	DD
Alkaloid	Topotekan	1,25 mg/m ² v/i 1–5-chi kunlar har 3 haftada	C
Platina unumlari	Oksaliplatin	130 mg/m ² v/i har 3 haftada	C
Monoklonal antitana	Bevatsizumab	7,5–15 mg/kg v/i har 3 haftada	B
Immuno onkologik preparat Monoklonal antitana	Pembrolizumab	200 mg v/i har 3 haftada	A
O‘smaga qarshi preparatlar toksik ta'sirini susaytiruvchi dori vositalari	Allopurinol	Ichishga	-
Antibakterial vositalar	Ofloksatsin	Vena ichiga	C

	Sefoperazon sulbaktam	Vena ichiga	C
	Metronidazol	Vena ichiga Ichishga	A
	Levofloksatsin	Vena ichiga Ichishga	-
	Siprofloksatsin	Vena ichiga Ichishga	C
	Sulfametoksazol /trimetoprim	Vena ichiga Ichishga	A
Zamburug‘ga qarshi dori vositalari	Vorikonazol	Vena ichiga Ichishga	B
	Itrakonazol	Ichishga	B
	Flukonazol	Vena ichiga Ichishga	C
	Pozakonazol	Ichishga	B
Virusga qarshi dori vositalari	Atsiklovir	Vena ichiga Ichishga	A
Qon ivish tizimiga ta'sir qiluvchi dori vositalari	Nadroparin	Teri ostiga	C
	Enoksaparin	Teri ostiga	C
Boshqa dori vositalari	Bupivakain, Lidokain, Prokain	Mahalliy qo‘llash	D
	Omeprazol	Vena ichiga Ichishga	A
	Famotidin	Vena ichiga	A
	Ambroksol	Ichishga	
	Amlodipin	Ichishga	B
	Drotaverin	Vena ichiga	
	Kaptopril	Ichishga	B
	Lizinopril	Ichishga	B
	Laktuloza	Ichishga	B
	Spironolakton	Ichishga	B
	Povidon – yod	Tashqi	-
	Tobramitsin	Vena ichiga	-
	Torasemid	Ichishga	-

	Foliy kislotasi	Ichishga	-
	Furosemid	Vena ichiga	-
	Xlorgeksidin	Ichishga	-
Ma'lumotlarni yuklab olish uchun (havolalar)	https://diseases.medelement.com/disease/%D1%80%D0%B0%D0%BA-%D1%88%D0%B5%D0%B9%D0%BA%D0%B8-%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%BA%D0%B8-%D0%BA%D0%BF-%D1%80%D0%BA-2023/17756		

5) Xirurgik aralashuvlar □11,17,19,23,26□.

Jadvalda BBSda jarrohlik aralashuvlari tiplarining Piver M.S., Rutledge F. (1974 y.) va Querleu D., Morrow S.P. (2017 y.) bo'yicha 2 hil tasnifi keltirilgan.

10-jadval. BBSda jarrohlik aralashuvlari tiplarining tasnifi.

Piver M. S, Rutledge F. (1974 y.) tasnifi			
I tip	Bachadonni ekstraktsial ekstirpatsiyasi		
II tip	Modifikatsiyalangan kengaytirilgan bachadon ekstirpatsiyasi deganda kardinal, qovuq-bachadon va tos-bachadon bog'lamlarining medial uchligini, qin yuqori uchligini olib tashlashni va tos limfadenektomiyasini o'z ichiga oladi. Uretralarni tunnellashtiriladi, lekin pastki lateral yarim doirasida mobilizatsiya qilinmaydi. Bachadon qon tomirlari uretra darajasida kesiladi.		
III tip	Meygs bo'yicha bachadonning kengaytirilgan ekstirpatsiyasi tos suyagi devorlaridan kardinal va tos-bachadon bog'lamlarini, qovuq devoridan qovuq-bachadon bog'lamlarini, qinning yuqori uchdan bir qismini to'liq olib tashlashni va tos limfadenektomiyasini nazarda tutadi. Uretra qovuq bilan qo'shilish nuqtasiga to'liq mobilizatsiya qilinadi. Bachadon tomirlari ichki yonbosh tomirlaridan chiqib ketish nuqtasida kesiladi		
IV tip	Kengaytirilgan bachadon ekstirpatsiyasi yuqori qovuq arteriyasini kesish, parauretral to'qimani va qinning 3/4 qismi kletchatkasini olib tashlashni o'z ichiga oladi		
V tip	Kombinatsiyalangan kengaytirilgan bachadon ekstirpatsiyasi uretraning distal qismlarini olib tashlash va qovuqni rezektsiya qilishni o'z ichiga oladi		
Querleu D., Morrow S. P. (2017 y.) tasnifi			
Tip	Lateral parametrik	Oldingi parametrik	Orqa parametrik
A	Bachadon bo'yni va uretra orasidagi masofa (uretra mobilizatsiya qilinmaydi)	Minimal	Minimal

B1	Uretra sohasida (uretra lateral paramiyetriydan mobilizatsiya qilinadi)	Qisman olib tashlash	Qisman olib tashlash
B2	V1 + paratservikal limfa tugunlar	V1	V1
C1	Yuqori qism tos devorlarigacha (lateral) va chuqur bachadon venasigacha (vertikal)	Yuqori qism (uretradan yuqori) qovuq sohasida	Yuqori qismi to'g'ri ichak sohasigacha (gipogastral nervlar saqlab qolinadi)
C2	To'liq tos devorlarigacha	To'liq qovuqqacha	To'liq chanoqqacha
D1	Ichki yonbosh tomirlari va ular ostidagi to'qimani olib tashlash	C2	C2
D2	Tos devori yondosh fastsial va mushak strukturalari rezektsiyasi	C2	C2

Bachadon bo'yni saratonini davolash usulini tanlash individual ravishda belgilanadi va o'sma jarayonining tarqalishiga va hamroh somatik patologiyaning og'irligiga bog'liq.

Jarrohlik aralashuv turlari:

- Bachadon bo'ynini keng konizatsiyasi;
- Total abdominal yoki qin gisterektomiyasi;
- Abdominal modifikatsiyalangan yoki radikal gisterektomiya, tos /paraaortal limfadenektomiya bilan;
- Abdominal traxeletomiya;
- Jarrohlik (laparoskopik) bosqichlash;
- Radikal traxeletomiya, qo'shimcha tos limfa tugunlarini olib tashlash bilan;
- Kichik chanoq a'zolarining modifikatsiyalangan ekstraperitoneal total (orqa yoki oldingi) ekzenteratsiyasi;

6) Keyingi davolash:

- BBS barcha bemorlari davo yakunlanganidan so'ng biriktirilgan hududi bo'yicha onkolog-ginekolog, onkolog, umumiy amaliyot shifokori tomonidan kuzatuvda bo'lishlari kerak.
- dastlabki 2 yil davomida – har 3 oyda;

- Uchinchi yil davomida – har 6 oyda;
- 4-chi yildan boshlab – har 12 oy (1 yil) da.
- O‘pkalarni rentgenologik tekshiruvni dastlabki 3 yil davomida yarim yilda 1 marta, keyinchalik har yili o‘tkazilishi kerak;
- Nazorat tekshirishlari ko‘lamiga kiradi: MRT OMT, QBA KTsi va KQA KTsi, PET/KT;
- KChA MRTsi, QBA KTsi va KQA KTsi – dastlabki 2 yil davomida har 3 oyda, uchinchi yil davomida har 4 oyda o‘tkaziladi;
- PET/KT – har yili.

7) Protokolda keltirilgan tashxislash va davolash usullarining xavfsizligi hamda davolash samaradorligi indikatorlari:

“o‘smaning javobi” – o‘tkazilgan davodan so‘ng o‘smaning regressiyasi;

To‘liq samara - bu kamida 4 hafta davomida barcha o‘choqlarning yo‘qolishi.

Qisman samara - boshqa o‘choqlari progressiyaning yo‘qligida barcha yoki alohida o‘smalarning 50% yoki undan ko‘p kichrayishi hisoblanadi.

Stabilizatsiya - (o‘zgarishsiz) boshqa yangi o‘choqlar paydo bo‘lmagan holda, o‘smaning 50% dan kam kichrayishi yoki 25% dan kam kattalashishi.

Progressiya - bir yoki bir nechta o‘smalar o‘lchamlarining 25% dan ko‘p kattalashishi yoki yangi shikastlanish o‘choqlarining paydo bo‘lishi [32] (ID – A).

- Retsidivsiz (uch va besh yillik) yashovchanlik;
- «Hayot sifati» ga insonning psixologik, emotsional va ijtimoiy faoliyatidan tashqari, bemor a'zoizmining fizik holati ham kiradi.

Karnovskiy indeksi/ ECOG-JSST bo'yicha bemor ahvoli og'irligini baholash shkalasi

Original nomlanishi: The Eastern Cooperative Oncology Group/World Health Organization Performance Status (ECOG/WHO PS)

Manba (rasmiy ishlab chiquvchi sayt): <https://ecogacrin.org/resources/ecog-performance-status>

Oken MM, Creech RH, Tormey DC, Horton J, Davis TE, McFadden ET, Carbone PP: Toxicity and response criteria of the Eastern Cooperative Oncology Group. Am J Clin Oncol 1982, 5(6):649-655

Tip: baholash shkalasi

Qo'llanilishi: o'zi to'g'risida qayg'urish, kundalik faollik va jismoniy qobiliyatlari (yurish, ishlash va boshq.) nuqtai nazaridan bemor faoliyati darajasini baholash.

Tarkibi:

Ball	Batavsil
0	Bemor to'liq faol, hamma narsani bemorligidan avvalgidek bajara oladi (Karnovskiy shkalasi bo'yicha 90–100%)
1	Bemor og'ir ishlarni bajara olmaydi, ammo yengil, o'rilib qilinuvchi ishlarni bajara oladi (masalan, yengil uy va kantsellyariy ishlarini, Karnovskiy shkalasi bo'yicha 70-80 %)
2	Bemor ambulator davolanadi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsata oladi, lekin ishlay olmaydi. 50% dan ortiq vaqtini tik oyoqda, vertikal holatda o'tkazadi (Karnovskiy shkalasi bo'yicha 50–60 %)
3	Bemor faqatgina chegaralangan o'z-o'ziga xizmat qila oladi, uyg'oq vaqtining 50% dan ortig'ini kresloda yoki yotiqda o'tkazadi (Karnovskiy shkalasi bo'yicha 30–40 %)
4	Nogiron, o'z-o'ziga xizmat qilishga umuman layoqatsiz, kreslo yoki yotoqqa butunlay mixlanib qolgan (Karnovskiy shkalasi bo'yicha 10–20 %)

Karnovskiy shkalasi

Original nomlanishi (agar bo'lsa): KARNOFSKY PERFORMANCE STATUS

Manba (rasmiy ishlab chiquvchi sayt):

Karnofsky DA, Burchenal JH: The clinical evaluation of chemotherapeutic agents in cancer. In: Evaluation of chemotherapeutic agents. edn. Edited by MacLeod C. New York: Columbia University Press; 1949: 191-205.

Tip: baholash shkalasi.

Buyurilishi: o'zi to'g'risida qayg'urish, kundalik faollik va jismoniy qobiliyatlari (yurish, ishlash va boshq.) nuqtai nazaridan bemor faoliyati darajasini baholash.

Tarkibi (shablon):

Karnovskiy shkalasi

100— Holati normal, shikoyatlari yo'q

90— Me'yoriy faoliyat yuritadi, kasallikning sezilarsiz simptom va belgilari mavjud.

80— Zo'riqish bilan normal faoliyat, kasallikning biroz simptom va belgilari mavjud.

70— O'ziga mustaqil xizmat qiladi, lekin normal faoliyatga yoki faol mehnatga layoqatsiz.

60— Ba'zan u yordamga muhtoj, lekin u ehtiyojlarining ko'p qismini o'zi qondira oladi.

50— Kuchli yordam va tibbiy xizmat ko'rsatishgaa muhtoj.

40— Nogiron, maxsus yordamga, shu jumladan tibbiy yordamga muhtoj.

30— Og'ir nogironlik, kasalxonaga yotqizish ko'rsatiladi, garchi o'lim kutilmayotgan bo'lsa ham.

20 — Og'ir bemor. Faol davolanish va kasalxonaga yotqizishga muhtoj.

10— O'layotgan bemor.

0— O'lim.

**«BACHADON BO‘YNI SARATONI»
NOZOLOGIYASI BO‘YICHA TIBBIY
ARALASHUVLAR MILLIY KLINIK
PROTOKOLI**

TOSHKENT – 2025

- Xalqaro kasalliklar tasnifi – XKT (MKB)-10 kodi (lar):

Kod	Nomlanishi
C.53	Bachadon bo‘yni xavfli o‘smalari
C.53.0	Ichki qismi
C.53.1	Tashqi qismi
C53.8	Yuqorida ko‘rsatilgan bitta yoki undan ko‘p sohalardan tashqari chiqqan bachadon bo‘ynining shikastlanishi
C53.9	Bachadon bo‘ynining aniqlashtirilmagan sohasi
Yuklab olish (XKT (MKB)dan havola): https://mkb-10.com/index.php?pid=1297	

- KXT-11 kodi (lari):

Kod	Nomlanishi
2C77.0	Yassi hujayrali bachadon bo‘yni saratoni
2C77.1	Bachadon bo‘yni adenokarsinomasi
2C77.2	Bezli-yassi hujayrali bachadon bo‘yni saratoni
2C77.3	Neyroendokrin bachadon bo‘yni saratoni
2C77.Y	Bachadon bo‘ynining boshqa aniqlangan xavfli o‘smalari
2C77.Z	Aniqlanmagan bachadon bo‘yni xavfli o‘smalari
Yuklab olish (XKT-11 dan havola): https://icd.who.int/browse/2025-01/mms/ru#2009008947	

1. Asosiy qism.

- Kirish (foydalanilgan manbaga havola: <https://www.who.int/ru/news-room/factsheets/detail/cervical-cancer>)

Bachadon bo‘yni saratoni (BBS) - dunyodagi ayollarda eng keng tarqalgan xavfli o‘smalardan biridir.

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra, bachadon bo‘yni saratoni dunyo bo‘ylab ayollarda to‘rtinchi eng keng tarqalgan saraton turi hisoblanadi; 2020 yilda 604 000 yangi holatlar kuzatilgan. Bachadon bo‘yni saratonidan 342 000 o‘limning taxminan 90 foizi kam yoki o‘rta daromadli mamlakatlarda sodir bo‘lgan. Bachadon bo‘yni saratonidan kasallanish va o‘limning eng yuqori ko‘rsatkichlari Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika davlatlarida, Markaziy Amerika va Janubi-Sharqiy Osiyoda kuzatiladi. Bachadon bo‘yni saratoni yukidagi regional farqlar emlash, skrining va davolash xizmatlaridan foydalanishdagi tengsizliklar, OIV tarqalishining xavf omillari,

shuningdek, jins, gender tarafdoshligi va qashshoqlik kabi ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liq. OIV bilan kasallangan ayollar bachadon bo'yni saratoniga chalinish ehtimoli umumiy aholiga qaraganda olti baravar ko'p va bachadon bo'yni saratonining barcha holatlarining 5% OIV bilan bog'liqligi taxmin qilinmoqda. Bachadon bo'yni saratoni rivojlanishida OIVning roli yosh ayollar orasida nomutanosib ravishda yuqori va natijada bolalarning onasini saraton kasalligidan mahrum qilish holatlarining 20 foizida bachadon bo'yni saratoni sabab bo'ladi.

Odam papilloma virusi (OPV) teri, jinsiy a'zolar va tomoqni zararlashi mumkin bo'lgan keng tarqalgan jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyadir. Jinsiy faol bo'lgan insonlarning deyarli barchasiga bir vaqtning o'zida yuqadi va odatda alomatlarisiz bo'ladi. Ko'pgina hollarda immunitet tizimi OPVdan tanani tozalaydi. OPVning persistirlanuvchi infeksiyasi saratonga aylanadigan anomal hujayralar rivojlanishini rag'batlantirishi mumkin.

Bachadon bo'ynining persistirlanuvchi OPV infeksiyasi (bachadonning qinga ochiladigan pastki qismi - tug'ilish kanali deb ham ataladi) davolanmasa, 95% holatlarda bachadon bo'yni saratonini keltirib chiqaradi. Anomal hujayralar saratonga aylanishi uchun odatda 15-20 yil kerak bo'ladi, ammo immunitet tizimining buzilishi bilan, masalan, davolanmagan OIV infeksiyasi bo'lgan ayollarda bu jarayon tezroq o'tishi va 5-10 yil davom etishi mumkin. Saraton rivojlanishining xavf omillari orasida OPV tipidagi onkogenlik darajasi, immunitet holati, boshqa jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalarning mavjudligi, tug'ilishlar soni, birinchi homiladorlik davrida ayolning yosh bo'lganligi, gormonal kontratseptiv vositalardan foydalanish va chekish kiradi.

Bachadon bo'yni saratonining aksariyat holatlarining sababi OPV onkogen subtiplarining persistentsiyasi (davom etishi) dir. Onkogen OPV ning 16 va 18 subtiplari bachadon bo'yni saratoni bilan og'rikan bemorlarning 71% da uchraydi, OPVning 31, 33, 45, 52 va 58 subtiplari esa bemorlarning 19% da aniqlanadi. Bachadon bo'yni saratonidan o'limni kamaytirish strategiyasiga ikkilamchi profilaktika (Surtmalarni Papanikolau bo'yicha sitologik tekshiruv va/yoki OPVga DNK tekshiruv) va birlamchi profilaktika (OPVga qarshi emlash) kiradi.

Invaziv bachadon bo'yni saratoni bilan bemorlarning 70-80% ini, yassi hujayrali saraton, 10-20% ini adenokartsinoma va 10%ini — past differentsiallashgan saraton tashkil etadi. Bachadon bo'yni xavfli o'smalarining boshqa gistologik turlari 1% dan oshmaydi.

RIOvaRIATMning 2022 yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida umumiy saraton kasalligi tarkibida BBS 3-o'rinni egallaydi va BBS bilan kasallanish 100 ming aholiga nisbatan 5,1 ni tashkil etadi. Mamlakatning ayol aholisi orasida BBS ko'krak bezi saratonidan keyin 2-o'rinni egallaydi va 100 000 ayol aholiga nisbatan 10,3 ni tashkil qiladi. 2022 yilda BBS bilan birinchi marta 1851 bemor aniqlandi. Ulardan 46,6% holatlar profilaktik tekshiruvlar paytida faol ravishda aniqlangan.

BBSning morfologik tasdiqlanish ulushi bemorlarda 99,0% ni tashkil qiladi. 17,6% holatlar kasallikning I bosqichida, 53,4% - II bosqichda, 23,1% - III bosqichda va 4,6% - IV bosqichda aniqlangan. bemorlarning 1,3% da kasallikning bosqichini aniqlab bo'lmadi. 2023 yil boshida 9918 bemor BBS bilan tibbiy nazorat ostida bo'lgan va kasalmandlik 100 ming aholiga nisbatan 55,4 ni tashkil qilgan. Respublikada 5 yillik yashovchanlik darajasi 42,4% va 1 yillik o'lim darajasi 9,2% ni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda 331 bemor bachadon bo'yni saratonidan vafot etdi, bu 100 ming aholiga nisbatan 2,7 o'limni tashkil etadi va ko'krak bezi, me'da va o'pka saratonidan keyin 4-o'rinni egallaydi. Ayol aholining o'limi orasida BBS ko'krak bezi saratonidan keyin 2-o'rinni egallaydi va ayol aholi orasida saratondan o'limning 12,7% ini tashkil qiladi.

2. Mazkur nozologiyada tanlangan tibbiy muolajaning qo'llanilishi tartibi.

1) Muolaja yoki aralashuvning maqsadi:

- o'sma o'sishini stabillashtirish va og'ir hamroh simptomlarni bartaraf etish uchun o'sma jarayonining to'liq yoki qisman regressiyasiga erishish va palliativ davolanish maqsadida jarrohlik usuli, kimyoterapiya va/yoki nur terapiyasi o'kaziladi.

2) Muolaja yoki aralashuvga qarshi ko'rsatmalar:

- bemorning og'ir holati – ECOG III–IV;
- faol bosqichdagi tuberkulez;
- dekompensatsiya bosqichidagi hamroh kasallik;
- o'tkir kechiktirib bo'lmaydigan g'olalar (miokard infarkti, insult);
- septik holatlar;
- qon ketish xavfi bilan, parchalanish bosqichidagi o'smalar (nur terapiya uchun);
- psixorgan kasalliklar (shizofreniya, kuchli tutqanoq sindromi bilan epilepsiya);
- Bemorning Karnovskiy shkalasi bo'yicha 60%dan kam bo'lgan og'ir holati.
- Dekompensatsiya bosqichidagi hamroh kasalliklar.

3) Muolaja e'ki aralashuvga k'rsatmalar;

- jarrohlik davolash yoki biopsiyadan keyin tashxisni majburiy morfologik tekshirish bilan har qanday bosqichdagi bachadon bo'yni saratonining mavjudligi;

- jarrohlik davolash yoki ochiq biopsiyadan so'ng tashxisni morfologik tasdiqlash bilan ikkilamchi (metastatik yoki birlamchi aniqlangan o'choqsiz) o'smaning mavjudligi yoki metastazning morfologik tasdig'ining yo'qligi, ammo bachadon bo'yni saratonining asosiy o'chog'ining gistologik tekshiruvi mavjudligi.

Kimyo va/yoki nur terapiya quyidagi maqsaddi o'tkaziladi:

- O'sma hujayralari yo'q qilish;
- O'sma o'lchamlarini kichraytirish, uni o'sishdan to'xtatish;
- Bachadon bo'yni saratoni retsidivini bartaraf etish;
- Davolashning asosiy usuli sifatida u butun tanaga ta'sir qiladigan tizimli xavfli o'smalar, shu jumladan, bachadon bo'yni saratoni uchun ko'rsatma hisoblanadi. Mutaxassislar preparatning dozasini diqqat bilan tanlaydilar: agar u juda kichik bo'lsa, davolanish samaradorligi kamayadi, agar u yuqori bo'lsa, nojo'ya ta'sirlar xavfi ortadi.

Bachadon bo'yni saratonini davolash usulini tanlash individual ravishda belgilanadi va o'sma jarayonining tarqalishiga va hamroh somatik patologiyaning og'irligiga bog'liq.

Xirurgik davoga ko'rsatmalar:

- Bachadon bo'ynining gistologik verifikatsiyalangan operabel va rezektabel xavfli o'smalari (BBSni jarrohlik davosi bo'limiga qarang);
- Xirurgik davoga qarshi ko'rsatmalar bo'lmaganda.

Bachadon bo'yni xavfli o'smalarida xirurgik davolashga qarshi ko'rsatmalar:

- Bemorda nooperabellik belgilari va og'ir hamroh kasalliklari mavjud bo'lsa;
- surunkali dekompensirlangan va/yoki o'tkir funktsional nafas, yurak-qon tomir, peshob ajratish tizimining buzilishlari;
- umumiy anesteziyada qo'llaniluvchi preparatlarga allergiya.

kimyo terapiya ga ko'rsatmalar:

- sitologik va gistologik tasdiqlangan bachadon bo'yni saratoni;
- mahalliy tarqalgan o'smalarni davolashda;
- uzoq a'zolarida va uzoq limfa tugunlarida metastazlar;
- o'sma retsidivi;

- bemorda qon surati qoniqarli bo'lishi: gemoglobin va gemokrit ko'rsatkichlarining me'yoriy bo'lishi;
- jigar, buyraklar, nafas tizimi va YuQT faoliyati saqlanganda;
- infiltratsiyani, o'sma o'lchamlarini kamaytirish va o'tkazilayotgan qo'shma nur terapiya va/yoki jarrohlik davosini radikalligini yaxshilash imkoniyati;
- bemor operatsiyadan bosh tortganda;
- o'sma yomon gistotipga ega bo'lganda (past differentsiialashgan, differentsiialashmagan), davolashning uzoq natijalarini yaxshilash.

кимё терапия га қарши кўрсатмалар:

kimyo terapiya ga qarshi ko'rsatmalar ikki guruhga bo'lish mumkin: absolyut va nisbiy.

Absolyut qarshi ko'rsatmalar:

- gipertermiya >38 gradus;
- dekompensatsiya bosqichidagi kasalliklar (yurak-qon tomir , nafas olish tizimi, jigar, buyraklar);
- o'tkir infektsiyaon kasalliklarning mavjudligi;
- psixik kasalliklar;
- bitta yoki bir nechta mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan, ushbu davoning samarasizligi;
- o'smani parchalanishi (qon ketish xavfi);
- Karnovskiy shkalasi bo'yicha 50% va unldan kam bemor umumiy ahvolidning og'irligi (1-ilovaga qarang).

Nisbiy qarshi ko'rsatmalar:

- 16-18 haftalik homiladorlik;
- a'zoizm intoksikatsiyasi;
- faol o'pka tuberkulezi;
- qon tarkibining turg'un patologik o'zgarishlari (anemiya, leykopeniya, trombositopeniya);
- kaxeziya.

4) Amaliyot yoki aralashuv o'tkazadigan mutaxassisga qo'yiladigan talablar:

Aholiga onkologik yordam ko'rsatadigan tibbiy muassasalarning onkoginekologik, kimyoterapevtik va radiologik bo'limlarida ishlaydigan xodimlar zarur hujjatlar bilan tasdiqlangan tegishli bilim va malakaga ega bo'lishi va A guruhi xodimlariga tegishli bo'lishi va operatsion blokda ishlash, radioaktiv va ionlashtiruvchi manbalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi, radiatsiya, shuningdek, onkoginekologiya va/yoki kimyoterapiya va/yoki radiatsiya xavfsizligi kurslarini o'tash muddati o'tmagan sertifikatlari bor bo'lishi kerak.

- «Onkologiya», «onkoginekologiya», «Kimyo terapiya», «nur terapiya» (radiatsion onkologiya) mutaxassisliklari bo'yicha sertifikati bo'lgan, ixtisosligi bo'yicha kamida 5 yillik staji bo'lgan, so'nggi 5 yil ichida kamida 216 soat davomida onkoginekologiya va/yoki kimyo - va/yoki nur terapiyasining yuqori texnologiyali usullari bo'yicha malaka oshirgan mutaxassis;

- Nur terapiyasi uchun fizika bo'yicha oliy ma'lumotli va/yoki oliy texnik ma'lumotga ega, mutaxassislik bo'yicha kamida 3 yillik ish tajribasiga ega, chiziqli tezlatgichlar bilan ishlash bo'yicha kamida 2 yillik tajribaga ega bo'lgan mutaxassis.

5) Asosiy va qo'shimcha diagnostika tadbirlari ro'yxati:

Амалиёт ёки аралашувга тайёргарлик кўришда мажбурий диагностика чоралари рўйхати:

1. QUT leykoformula va trombositlar miqdorini hisoblash bilan;
2. Qon biokimyoviy tahlyoki (natriy, kaliy, kalsiy, glyukoza, mochevina, kreatinin, siydik kislotasi, umumiy oqsil, albumin, umumiy bilirubin, bevosita bilirubin, LDG, AST, ALT, SRB, ishqoriy fosfotaza);
3. AVO tizimi bo'yicha qon tuguhini aniqlash;
4. Rezus-faktorni aniqlash;
5. Peshob umumiy tahlili;
6. Koagulogramma (ACHTV, PV, MNO, PTI, fibrinogen);
7. Koptokcha filtratsiyasi tezligini aniqlash;
8. IFA yoki IXL usulida virusli gepatit B va C markerlarini aniqlash
9. IFA usulida OIV-infeksiyani aniqlash (HIVAg/anti-HIV);
10. B va C virusli gepatitlari uchun PZR (sifatli)
11. Zahmga serologik reaksiyalar majmuasi;
12. Ginekologik ko'rik va rektovaginal tekshiruv;

13. Kolposkopiya, bachadon bo‘ynidagi barcha shubhali sohalardan biopsiya, zarurat bo‘lsa — bachadon bo‘yni konizatsiyasi;
14. Kompleks ultratovush tashxislash (bachadon bo‘yni, tanasi, ortiqlari, tuxumdonlar, jigar, o‘t qopi, me‘da osti bezi, taloq, buyraklar va periferik limfa tugunlari);
15. Kichik chanoq v/i kontrastlash bilan magnit-rezonans tomografiyasi;
16. Ko‘krak qafasi, qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti kompyuter tomografiyasi;
17. Bioptatni sitologik tekshirish (limfa tuguni, hosilani)*
18. Bioptatni gistologik tekshirish (limfa tuguni, hosilani)*
19. Bioptatni immunogistoximik tekshirish (limfa tugunini, hosilani, trepano bioptatni)
20. Sistoskopiya
21. Rektoromanoskopiya;
22. Ekskretor urografiya, renografiya;
23. EKG;
24. ExoKG;
25. Butun tana PET/KTsi**;
26. Kontrastlash bilan MSKT ***;

- Muolaja va aralashuvga tayyorlashda qo‘shimcha tekshirish usullari:

1. PZR usulida Ebshteyn-Barr virusi, 1-2 tip herpes, sitomegalovirus, toksoplazmoz;
2. B va C gepatit viruslariga PZR (miqdoriy);
3. SOVID-19ga PZR;
4. Qonni kislotasi ishqoriy holati (KIH) va gazlarga aniqlash;
5. Bevosita va bilvosita Kumbs reaksiyasi;
6. Standart sitogenetik tekshirish;
7. FISH usulida va molekular-genetik tekshirish;
8. Ferritin, folatlar, zardob temiri, Vitamin V12ni aniqlash;
9. ProBNP
10. Prokalsitonin
11. Antitrombin III, D-dimer
12. Qon zardobida LDG, XG va AFPni aniqlash;
13. Fertil yoshidagi ayollarda – homiladorlikka test, XGCHni aniqlash;
14. Miyelogramma;

- 15.Periferik qon IFTsi;
 - 16.Inson T-limfotrop virusi I/II-IgG ga antitana;
 - 17.Standart –sitogenetik tekshirish;
 - 18.FISH va PZR usulida molekular-genetik tekshirish;
 - 19.Burun yondosh bo‘liqlari rentgenografiyasi;
 - 20.Ortopantomogramma;
 - 21.Bosh, bo‘yin va qorin bo‘shlig‘ini kontrastli KTsi;
 - 22.FGDS;
 - 23.Bronxoskopiya;
 - 24.Kolonoskopiya;
 - 25.Qorin bo‘shlig‘i a’zolarining kontrast rentgen tekshiruvi;
 - 26.Tomirlar (vena va/yoki arteriyalar) UTDGsi;
 - 27.Spirografiya;
 - 28.Bosh miya MRTsi;
 - 29.Skelet suyaklarini rentgenografiyasi yoki ssintigrafiyasi (suyaklarni metastatik shikastlanishiga gumon bo‘lganda);
 - 30.Plevra bo‘shliqlari, periferik limfa tugunlari, qalqonsimon bez UTTsi;
 - 31.Holter – monitorlash bilan EKG.
- * Agar avval o‘tkazilmagan bo‘lsa.
- ** Kasallikning boshlanishida va qayta bosqichlash paytida bajarish kerak.
- *** PET/KT o‘tkazish mumkin bo‘lmagan hollarda.

6) Muolaja yoki aralashuvni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar:

Onkologik muassasaning jarrohlik (onkoginekologik) bo‘limi faoliyatini tashkil etish qoidalari

Ushbu qoidalar onkologik shifoxonaning (onkologik markaz va uning filiallari), onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatadigan boshqa tibbiy tashkilotning (keyinchalik - tibbiyot tashkilotlari) jarrohlik davolash usullari onkologik bo‘limlari (keyinchalik - bo‘lim) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Bo‘lim onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarga jarrohlik usullarini mustaqil davolash turi sifatida tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadida tibbiy tashkilotning tarkibiy bo‘linmasi sifatida tashkil etilgan bo‘lib, "onkologiya", "onkoginekologiya",

"kimyoterapiya", "radiologiya" ishlar (xizmatlar) uchun tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

Bo‘limning yotoq o‘rinlar hajmi 25 dan 50 gacha bo‘lishi kerak.

Bo‘limlar kamida 70 onkologik yotoq o‘rinli tibbiy tashkilotda tashkil etiladi, agar ular mulkiy majmua ichida joylashgan bo‘lsa, funktsional va texnologik jihatdan quyidagi bo‘lim bilan birlashtirilgan bo‘lsa:

- Rentgen diagnostikasi bo‘limi, shu jumladan rentgen tekshiruvi qoidalariga muvofiq tashkil etilgan rentgen xonasi, rentgen mamografiya xonasi, rentgen kompyuter tomografiyasi xonasi <1>;
- Funktsional tadqiqotlar qoidalariga muvofiq tashkil etilgan funktsional diagnostika bo‘limi <1>;
- Ultratovush qoidalariga muvofiq tashkil etilgan ultratovush diagnostikasi xonasi (bo‘limi), <1>;
- endoskopik tekshiruvlarni o‘tkazish qoidalariga muvofiq tashkil etilgan endoskopik bo‘lim <1>;
- klinik-diagnostik laboratoriyalar;
- "anesteziologiya va reanimatologiya" profilida kattalar aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibiga muvofiq tashkil etilgan kattalar aholisi uchun reanimatologiya va intensiv terapiya bo‘limlari yoki anesteziologiya-reanimatsiya bo‘limlari yeanimatologiya va intensiv terapiya palatalari bilan <2>;
- Buyruq bilan tasdiqlangan onkologik kasalliklarga chalingan kattalarga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibiga muvofiq tashkil etilgan operatsion bo‘linma;
- Buyruq bilan tasdiqlangan onkologik kasalliklarga chalingan kattalarga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibiga muvofiq tashkil etilgan o‘smaga qarshi dori terapiyasi bo‘limi;
- "Transfuziologiya" profilida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibiga muvofiq tashkil etilgan transfuziologiya kabineti <3>;

Bo‘lim bemorlarni doimiy ravishda kuzatib borish uchun onkolog va bo‘lim hamshirasidan iborat navbatchi guruh tomonidan kechayu kunduz nazorat bilan ta'minlanishi kerak.

Bo‘lim strukturasida quyidagilar bo‘lishi nazarda tutilishi kerak:

- Ko‘ruv xonasi;
- Bo‘lim mudiri xonasi;
- Shifokorlar xonasi;

- palatalar;
- bog‘lam almashtirish xonasi;
- muolaja xonasi;
- xuqnaxona;
- kichik jarrohlik xonasi (onkourologiya, onkoginekologiya, bosh va bo‘yin o‘smalari bo‘limlari uchun);
- hamshiralar xonasi.

Jarrohlik bloni tashkil etish qoidalari

Jarrohlik blokida strukturasi quyidagilar bo‘lishi nazarda tutilishi kerak:

- sanuzel bilan sanitar o‘tkazgich (xojatxona va dushlar);
- jarrohlik oldi xonasi;
- jarrohlik xonasi;
- yuvinish xonasi;
- donorlik qonini va (yoki) uning tarkibiy qismlarini qon quyish uchun saqlash va tayyorlash uchun xona;
- tibbiy asboblarni saqlash uchun xonalar;
- kiyim almashtirish uchun xona;
- bemorning operatsiyadan keyingi vaqtinchalik bo‘lish xonasi;
- sterilizatsiya;
- protokol xonasi (agar 4 dan ortiq jarrohlik xonasi bo‘lsa);
- Katta hamshira xonasi;
- operatsiyadan keyingi chiqindilarni saqlash xonasi;
- gipsli bandajlarni saqlash va tayyorlash uchun xona (suyaklar va yumshoq to‘qimalarning o‘smalari bo‘limi uchun);

A) Malakali personal [8].

11-jadval. Onkoginekologiya bo‘limining tavsiya etiladigan shtatlar normativi

T/r	Lavozim nomi	Lavozim soni
1.	Bo‘lim mudiri - shifokor-onkolog	1
2.	Shifokor-onkolog	10 o‘ringa 1 ta

3.	Palata hamshirasi	Aylana sutka ishlash maqsadida 15 o‘ringa 4,75
4.	Muolaja xonasi hamshirasi	Xonaga 1 ta
5.	Bog‘lov xonasi hamshirasi	25 o‘ringa 1 ta
6.	Katta hamshira	1
7	Bemorlarga qarovchi kichik hamshira	15 o‘ringa 1 ta
8	Sanitar	Aylana sutka ishlash maqsadida 15 o‘ringa 4,75; 1 (muolaja va bog‘lov xonasida ishlash uchun); 30 o‘ringa 1 ta 30 o‘ringa 2 ta
9	Xo‘jalik bekasi	1

B) Xavfsizlik choralari rioya qilish talablari [8]: O‘zbekiston

Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq jarrohlik shifoxonasining barcha sanitariya normalari va qoidalariga, kimyoviy va radiatsion xavfsizlikka rioya qilish.

Nur terapiya o‘tkazish uchun:

- chiziqli tezlatkich yoki gamma terapevtik uskuna;
- baraban fantom (qurilmaning ishlashini tekshirish va kalibrlash uchun);
- CVCT tasvirlash tizimining Xaunsfeld birliklarini kalibrlash uchun fantom;
- termoplastik niqoblar uchun termoregulyatsiyalangan vanna/pech;
- vakkum matraslar uchun nasos;
- o‘rnatilgan, to‘liq integratsiyalashgan dozimetrik rejalashtirish tizimi;
- dozimetrik uskunalarning standart to‘plami;
- Virtual simulyatsiya funksiyasi va stolda maxsus moslashtirilgan tekis deka bilan kamida 80 sm apertura bilan KT;
- Virtual simulyatsiya funksiyasi va stolda maxsus moslashtirilgan tekis deka bilan kamida 80 sm apertura bilan MRT.
- podgolovnik;
- vakuumli matras;

- kaplar, zagubniklar;
- indeksli ramka;
- tizza ostika qo'yish moslamalari;
- termoplastik platinlar (maskalar)

7) Bemorni tayyorlashga qo'yiladigan talablar:

Bemor tomonidan tayyorlangan tomografik tasvirlar va ko'rsatmalar asosida, shuningdek bemorni tekshirish natijasida kasallikning o'chog'i va tananing umumiy holati aniqlanadi, kimyoterapiya va / yoki nur terapiyasining maqsadga muvofiqligi hisoblanadi.

Birinchi tashrif kuni kimyoterapevt va / yoki nur terapiya onkologi tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tiladi va kerakli tekshiruvlarni tayinlaydi.

Shifokor bemorga uning kasalligining xususiyatlarini va davolash usulini tushunarli tarzda tushuntiradi, bemordan simptomlar haqida batafsil so'rab surishtiradi va barcha mavjud ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qiladi.

Kasallikning holatiga qarab, kimyoviy terapiya va/yoki nur terapiyasi noo'rin deb hisoblanishi mumkin.

Kimyoviy va/yokinur terapiyasi kursini tayinlash kimyoterapevt va / yoki radiolog tomonidan va bemorning yozma roziligi bilan hal qilinadi.

Davolash rejimi klinik ko'rsatmalar va tadqiqot protokollariga muvofiq belgilanadi. Terapevtik dozalar o'smaning gistologik turiga, lokalizatsiyasiga, bosqichiga va tarqalishiga qarab tanlanadi.

Kimyoterapiya va / yoki nur terapiyasini o'tkazish to'g'risida qaror bemorni keng qamrovli tekshiruvdan, aniq tashxidan so'ng qabul qilinadi. Jarayon oldidan bemor premedikatsiya qilinadi — organizmga qilinishi kutilayotgan davolanishni yaxshi ko'tarishi uchun bir qator dorilar qo'llaniladi:

- gepatoprotektorlar;
- qayt qilishga qarshi dorilar;
- immunomodulyatorlar;
- probiotiklar va boshqalar.

Kimyoterapiya va / yoki nur terapiyasining har bir kursidan oldin bemor bir qator qon va siydik sinovlaridan o'tadi, agar kerak bo'lsa, muayyan holatga qarab ba'zi organlarning ultratovush tekshiruvi, EKG va boshqa bir qator tekshiruvlardan o'tadi.

8) Protokolda keltirilgan tashxislash va davolash usullarining xavfsizligi hamda davolash samaradorligi indikatorlari:

“o‘smaning javobi” – o‘tkazilgan davodan so‘ng o‘smaning regressiyasi;

To‘liq samara - bu kamida 4 hafta davomida barcha o‘choqlarning yo‘qolishi.

Qisman samara - boshqa o‘choqlari progressiyaning yo‘qligida barcha yoki alohida o‘smalarning 50% yoki undan ko‘p kichrayishi hisoblanadi.

Stabilizatsiya - (o‘zgarishsiz) boshqa yangi o‘choqlar paydo bo‘lmagan holda, o‘smaning 50% dan kam kichrayishi yoki 25% dan kam kattalashishi.

Progressiya - bir yoki bir nechta o‘smalar o‘lchamlarining 25% dan ko‘p kattalashishi yoki yangi shikastlanish o‘choqlarining paydo bo‘lishi [32] (ID – A).

- Retsidivsiz (uch va besh yillik) yashovchanlik;
- «Hayot sifati» ga insonning psixologik, emotsional va ijtimoiy faoliyatidan tashqari, bemor a'zoizmining fizik holati ham kiradi.

**«BACHADON BO‘YNI SARATONI»
NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
PROFILAKTIKA VA REABILITATSIYA
MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

TOSHKENT – 2025

- Xalqaro kasalliklar tasnifi – XKT (MKB)-10 kodi (lar):

Kod	Nomlanishi
C.53	Bachadon bo‘yni xavfli o‘smalari
C.53.0	Ichki qismi
C.53.1	Tashqi qismi
C53.8	Yuqorida ko‘rsatilgan bitta yoki undan ko‘p sohalardan tashqari chiqqan bachadon bo‘ynining shikastlanishi
C53.9	Bachadon bo‘ynining aniqlashtirilmagan sohasi
Yuklab olish (XKT (MKB)dan havola): https://mkb-10.com/index.php?pid=1297	

- KXT-11 kodi (lari):

Kod	Nomlanishi
2C77.0	Yassi hujayrali bachadon bo‘yni saratoni
2C77.1	Bachadon bo‘yni adenokarsinomasi
2C77.2	Bezli-yassi hujayrali bachadon bo‘yni saratoni
2C77.3	Neyroendokrin bachadon bo‘yni saratoni
2C77.Y	Bachadon bo‘ynining boshqa aniqlangan xavfli o‘smalari
2C77.Z	Aniqlanmagan bachadon bo‘yni xavfli o‘smalari
Yuklab olish (XKT-11 dan havola): https://icd.who.int/browse/2025-01/mms/ru#2009008947	

1. Asosiy qism.

- Kirish

Bachadon bo‘yni saratoni (BBS) - dunyodagi ayollarda eng keng tarqalgan xavfli o‘smalardan biridir.

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, bachadon bo‘yni saratoni dunyo bo‘ylab ayollarda to‘rtinchi eng keng tarqalgan saraton turi hisoblanadi; 2020 yilda 604 000 yangi holatlar kuzatilgan. Bachadon bo‘yni saratonidan 342 000 o‘limning taxminan 90 foizi kam yoki o‘rta daromadli mamlakatlarda sodir bo‘lgan. Bachadon bo‘yni saratonidan kasallanish va o‘limning eng yuqori ko‘rsatkichlari Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika davlatlarida, Markaziy Amerika va Janubi-Sharqiy Osiyoda kuzatiladi. Bachadon bo‘yni saratoni yukidagi regionar farqlar emlash, skrining va davolash xizmatlaridan foydalanishdagi tengsizliklar, OIV tarqalishining xavf omillari, shuningdek, jins, gender tarafkashligi va qashshoqlik kabi ijtimoiy va iqtisodiy omillar

bilan bog‘liq. OIV bilan kasallangan ayollar bachadon bo‘yni saratoniga chalinish ehtimoli umumiy aholiga qaraganda olti baravar ko‘p va bachadon bo‘yni saratonining barcha holatlarining 5% OIV bilan bog‘liqligi taxmin qilinmoqda. Bachadon bo‘yni saratoni rivojlanishida OIVning roli yosh ayollar orasida nomutanosib ravishda yuqori va natijada bolalarning onasini saraton kasalligidan mahrum qilish holatlarining 20 foizida bachadon bo‘yni saratoni sabab bo‘ladi.

Odam papilloma virusi (OPV) teri, jinsiy a‘zolar va tomoqni zararlashi mumkin bo‘lgan keng tarqalgan jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyadir. Jinsiy faol bo‘lgan insonlarning deyarli barchasiga bir vaqtning o‘zida yuqadi va odatda alomatlarsiz bo‘ladi. Ko‘pgina hollarda immunitet tizimi OPVdan tanani tozalaydi. OPVning persistirlanuvchi infeksiyasi saratonga aylanadigan anomal hujayralar rivojlanishini rag‘batlantirishi mumkin.

Bachadon bo‘ynining persistirlanuvchi OPV infeksiyasi (bachadonning qinga ochiladigan pastki qismi - tug‘ilish kanali deb ham ataladi) davolanmasa, 95% holatlarda bachadon bo‘yni saratonini keltirib chiqaradi. Anomal hujayralar saratonga aylanishi uchun odatda 15-20 yil kerak bo‘ladi, ammo immunitet tizimining buzilishi bilan, masalan, davolanmagan OIV infeksiyasi bo‘lgan ayollarda bu jarayon tezroq o‘tishi va 5-10 yil davom etishi mumkin. Saraton rivojlanishining xavf omillari orasida OPV tipidagi onkogenlik darajasi, immunitet holati, boshqa jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalarning mavjudligi, tug‘ilishlar soni, birinchi homiladorlik davrida ayolning yosh bo‘lganligi, gormonal kontratseptiv vositalardan foydalanish va chekish kiradi.

Bachadon bo‘yni saratonining aksariyat holatlarining sababi OPV onkogen subtiplarining persistensiyasi (davom etishi) dir. Onkogen OPV ning 16 va 18 subtiplari bachadon bo‘yni saratoni bilan og‘rigan bemorlarning 71% da uchraydi, OPVning 31, 33, 45, 52 va 58 subtiplari esa bemorlarning 19% da aniqlanadi. Bachadon bo‘yni saratonidan o‘limni kamaytirish strategiyasiga ikkilamchi profilaktika (Surtmalarni Papanikolau bo‘yicha sitologik tekshiruv va/yoki OPVga DNK tekshiruv) va birlamchi profilaktika (OPVga qarshi emlash) kiradi.

Invaziv bachadon bo‘yni saratoni bilan bemorlarning 70-80% ini, yassi hujayrali saraton, 10-20% ini adenokarsinoma va 10%ini — past differensiallashgan saraton tashkil etadi. Bachadon bo‘yni xavfli o‘smalarining boshqa gistologik turlari 1% dan oshmaydi.

RIOvaRIATMning 2022 yilgi statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida umumiy saraton kasalligi tarkibida BBS 3-o‘rinni egallaydi va BBS bilan kasallanish 100 ming aholiga nisbatan 5,1 ni tashkil etadi. Mamlakatning ayol aholisi orasida BBS ko‘krak bezi saratonidan keyin 2-o‘rinni egallaydi va 100 000 ayol aholiga nisbatan 10,3 ni tashkil qiladi. 2022 yilda BBS bilan birinchi marta 1851 bemor aniqlandi. Ulardan 46,6% holatlar profilaktik tekshiruvlar paytida faol ravishda aniqlangan. BBSning morfologik tasdiqlanish ulushi bemorlarda 99,0% ni tashkil qiladi. 17,6% holatlar kasallikning I bosqichida, 53,4% - II bosqichda, 23.1% - III bosqichda va 4,6% -

IV bosqichda aniqlangan. bemorlarning 1,3% da kasallikning bosqichini aniqlab bo‘lmadi. 2023 yil boshida 9918 bemor BBS bilan tibbiy nazorat ostida bo‘lgan va kasalmandlik 100 ming aholiga nisbatan 55,4 ni tashkil qilgan. Respublikada 5 yillik yashovchanlik darajasi 42,4% va 1 yillik o‘lim darajasi 9,2% ni tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda 331 bemor bachadon bo‘yni saratonidan vafot etdi, bu 100 ming aholiga nisbatan 2,7 o‘limni tashkil etadi va ko‘krak bezi, me‘da va o‘pka saratonidan keyin 4-o‘rinni egallaydi. Ayol aholining o‘limi orasida BBS ko‘krak bezi saratonidan keyin 2-o‘rinni egallaydi va ayol aholi orasida saratondan o‘limning 12,7% ini tashkil qiladi.

- Profilaktika yoki reabilitatsiya tushunchasi

Profilaktik tibbiyot (manbani yuklab olish uchun havola: https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D1%80%D0%BE%D1%84%D0%B8%D0%B%D0%B0%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F_%D0%BC%D0%B5%D0%B4%D0%B8%D1%86%D0%B8%D0%BD%D0%B0) (profilaktologiya, grech. Πρόφύλακτικός — «ehtiyot qiluvchi» [35] i λόγος — «ta'limot, fan») — tibbiyotdagi fan va amaliyot, kasalliklar va shikastlanishlar paydo bo‘lishining oldini olish, ularning rivojlanishi uchun xavf omillarini oldini olish va yo‘q qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui dir [36][37].

Aslida profilaktika quyidagilarga bo‘linadi [38]:

- Individual va jamoat (ijtimoiy);
- Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi.

Profilaktika doirasida yuqumli kasalliklar va psixoprofilaktikaning spetsifik profilaktikasi ham mavjud [38].

Profilaktika tibbiyotning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi[36] 39] va sog‘liqni saqlashning yuqori holatini ta'minlash va kasalliklarning oldini olish maqsadida davlat, ijtimoiy-iqtisodiy, gigiyenik va terapevtik-tibbiy xarakterdagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu nafaqat tibbiy manipulyatsiyalarni, balki Qonunchilik, tashkiliy, ekologik [40], me'moriy va rejalashtirish, sanitariya-texnik, aholining tibbiy masalalari bo‘yicha ta'lim [41] tadbirlarni ham nazarda tutadi. Bu omillar va xavflarning kasalliklar bilan bog‘liqligini ilmiy statistik sababiy tahliliga asoslangan [42] [43].

Profilaktik chora-tadbirlar sog‘liqni saqlash tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, aholi o‘rtasida tibbiy-ijtimoiy faollik va sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirishga qaratilgan.

Amaldagi profilaktika choralari bir kishining tanasida keyingi kasalliklarga olib kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan maqsadli choralarni ko‘rish orqali to‘liq sog‘lom inson hayotini uzaytirishga

intiladi. Kasallikning oldini olishga bunday individual yondashuv profilaktika tibbiyoti tomonidan ko‘rib chiqiladi [44][45].

Tibbiy reabilitatsiya (manbani yuklab olish uchun havola: https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B5%D0%B4%D0%B8%D1%86%D0%B8%D0%BD%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F_%D1%80%D0%B5%D0%B0%D0%B1%D0%B8%D0%BB%D0%B8%D1%82%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F) (ot lat. rehabilitatio, tiklash [49]) — kasallik yoki shikastlanish natijasida buzilgan yoki butunlay yo‘qolgan inson tanasining normal aqliy va fiziologik funksiyalarini (ehtiyotlarini) maksimal darajada tiklash yoki qoplashga qaratilgan tibbiy, pedagogik, psixologik va boshqa turdagi chora-tadbirlar majmuasidir. Ehtiyojlarga misollar: sog‘lom bo‘lish, jismoniy faollik, harakat yerkinligi, harakatlarning mustaqilligi, odamlar bilan muloqot qilish, zarur ma'lumotlarni olish, mehnat va boshqa faoliyat orqali o‘zini o‘zi anglash [50] [51] [52].

Davolashdan farqli o‘laroq, reabilitatsiya tanadagi patologik jarayonning o‘tkir bosqichi bo‘lmaganda amalga oshiriladi [53].

Tibbiy reabilitatsiya reabilitatsiyaning boshqa turlari — jismoniy, psixologik, mehnat, ijtimoiy, iqtisodiy turlari bilan chambarchas bog‘liq.

2. Profilaktika yoki reabilitatsiya turlari.

Salomatlik holatiga, kasallik yoki og‘ir patologiya uchun xavf omillarining mavjudligiga qarab, profilaktikaning 3 turini ko‘rib chiqish mumkin.

